

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

XOLMURODOVA YULDUZ SAYTPULAT QIZI

**“TARJUMONU-L-BALOG‘A” ASARIDA BADIY SAN‘ATLARNING
YORITILISHI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
f.f.n.dots. D.Yusupova

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
I BOB. UMAR RODUYONIYNING “TARJUMONU –L –BALOG‘A”ASARI FORSIY ILMI BADI‘GA DOIR ILK MANBA SIFATIDA	8
1.1. Ilmi badi‘ haqida ma‘lumot.....	8-15
1.2. “Tarjumonu-l-balog‘a” asarining yaratilish tarixi va tarkibiy tuzilishi.....	16-19
II BOB. “TARJUMONU – L - BALOG‘A” ASARIDA KELTIRILGAN BADIYY SAN‘ATLAR.....	20
2.1. Asarda keltirilgan lafziy va ma‘naviy san‘atlar	20-33
2.2. Asarda mushtarak san‘atlarning ifodalanishi.....	34-38
2.3. Zamonaviy ilmi badi‘da uchramaydigan badiiy san‘atlar.....	39-48
XULOSA.....	49-50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	51-52

KIRISH

Hayot atalmish ummon qa'rida yashayotgan inson umr bo'yi go'zallikka intilib, undan estetik zavq olib yashaydi. Barcha yaratishlar ichida faqat insongagina fikrlash va o'ylagan narsalarini o'z nutqida bayon qilish imkoniyati berilgan. Inson yaralgandan buyon go'zallikning shaydosi bo'lgan, go'zallik har bir narsada, xususan, har bir san'atda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Jumladan, so'z san'ati bilan dunyoga kelgan badiiy nafasat ham ming yillar davomida o'zgarmasdan, qalblarni doim ohanrabodek o'ziga tortib kelmoqda. Qariyb ming yillik tarixga ega mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi she'r ahlining doimo e'tiborida bo'lgan. Qaysidir ijodkor haqida so'z borganda, birinchi o'rinda, uning nimani qanday tasvirlaganiga diqqatimizni qaratamiz, chunki adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Biror bir badiiy asarga yoki bo'lmasa, biror shoir ijodiga baho beradigan bo'lsak, ijodkor ifodalayotgan badiiy timsollar bilan birgalikda asarda qo'llanilgan she'riy san'atlarning nihoyatda jozibali ekanligi diqqatimizni tortadi, negaki ayni shu omillar asarning mazmunini ochishga xizmat qiladi.

Adabiyotda she'riy san'atlardan foydalanish shoir badiiy salohiyatini ko'z – ko'z qilish, uning xilma xil san'atlaridan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy – axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. Shuningdek, yaratilgan lirik she'rlardagi badiiy tasvir vositalari har bir kishiga orom beradi, ular insonlarga yoqimli kayfiyat, butun qiyinchiliklarni mahv etishga qodirdek kuch –qudrat bag'ishlaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlool sharofati bilan qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi va har bir sohaga yetarlicha e'tibor qaratildi. Ungacha ma'naviy madaniyatimizni oziqlantirib turgan ildizlarni qirqib tashlashga yillar sarflangan edi.¹

¹ Каримов.И.А. Узбекистон мустикалликка эришиш остонасида.Т: Узбекистон,2012.–Б.90

Mustaqilligimizni qo'lga kiritgandan so'ng, ajdodlarimiz merosini o'rganishga keng yo'l ochildi. Negaki, ajdodlar merosida insoniyat uchun eng ulug' matlablardan - ma'naviyat muqaddas qadriyat sifatida o'rin topgan. Haqiqatdan ham tan olib aytishimiz kerakki, adabiyot insonni ezgulikka chorlaydi asl ma'naviyatimiz qanaqa bo'lganligidan bizni xabardor etadi. Ma'naviyat tushunchasini chuqur anglagan insongina o'z ortidan qolgan ma'naviyatga tashna insonlarni yetaklab boradi. Umr atalmish hayotimiz to'xtamasdan o'tib bormoqda, kun sayin inson bir kashfiyotga guvoh bo'lmoqda, bunday ishlarga o'zimiz qodir bo'lishimiz uchun biz ilm – ma'rifatga hissa qo'shgan ajdodlar merosini chuqur o'rganishimiz, bilim darajamizni yanada oshirishimiz kerak. Prezidentimiz bejizga “ ma'naviyatimizni asrash uchun shu yurtida yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy ma'daniyatimiz ulug' ajdodlarimiz merosini chuqurroq o'zlashtirishimiz zarur”² –deb aytmagan. Ayni shu fikrlarning asosi deya ajdodlarimiz merosini o'rganish va targ'ib qilish yuzasidan bugungi kunda olib borilayotgan ishlarni iftixor bilan qayd etadigan bo'lsak mubolag'a bo'lmas deb o'ylayman. Bugungi kunda ota – bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy -axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan nodir qo'lyozmalar jiddiy o'rganilmoqda. Negaki biz ozod yurtning farzandlarimiz, o'zimizni qiziqtirgan har qanday savolga mustaqil ravishda o'qib, o'rganib javob topa olamiz. Hozirda she'riy san'atlarning yoritilishiga oid ko'plab ilmiy asarlarni uchratishimiz mumkin, ammo avval she'riy san'atlar qay yo'sinda yozilgan va uning tarkibi qanday bo'lganligi hammamizni birdek qiziqtiradi. Ayniqsa, biz o'rganmoqchi bo'lgan asar o'zbek tilida emas, fors tilida bo'ladigan bo'lsa, qiziqishimiz yanada ortadi. O'sha manbada qanday yangilik mavjud ekanligiga bo'lgan ishtiyoq bizni yanada ko'p izlanishga chorlaydi. Umar Roduyoniyning hayoti va ilmiy –adabiy merosi hali batafsil o'rganilmagan. Muallifning she'riy san'atlarga bag'ishlangan “Tarjumonu –l – balog'a “ asari hali zamonaviy adabiyot mezonlari asosida tadqiq qilinmagan. Asar ham she'rshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy –qiyosiy tahlil etilsa, fors badiiy so'z

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.:Ma'naviyat, 2011. –B.173

san'ati rivoji evolyutsiyasidagi bir bosqich o'rganilgan bo'lar edi. Roduyoniyning "Tarjumonu –l-balog'a" asarini O'zbekistonda ilmiy muomalaga kiritish ehtiyoji mavjud. Birinchidan, mazkur asar ilmi badi' borasida yaratilgan birinchi risolalardan biri bo'lsa, ikkinchidan, uning muallifi Farg'ona vodiysi farzandi ekanligi to'g'risidagi ma'lumot Roduyoniy ijodini har tomonlama o'rganishni taqazo etadi, chunki yurtimiz vakilining ijodini o'rganishimiz shart. Ayni shu holat bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Umar Roduyoniy va uning adabiy merosining o'rganilishiga tarixiga nazar solar ekanmiz, dastlab, bu borada alohida ahamiyatga ega bo'lgan manbalarga, ya'niki, asar nomi keltirilib o'tilgan va uning qaysidir jihatdan foydalanib, uni manba sifatida asos qilib olib yuzaga kelgan asarlarni sanab o'tishimiz lozim. Rashiddin Vatvotning "Hadoyiqu –s-sehr fi daqoyiqu –sh-she'r", Yoqut Hamaviyning "Mo'jamu –l-udabo", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratu-sh-shuaro", Hoji Xalifaning "Kashfu –z-zunun", Lutfalibek Ozarning "Otashkada", Rizoqulixon Hidoyatning "Majma'u –l-fusaho", Ahmad Taroziyning "Fununu– l-balog'a", Atoulloh Husayniyning "Badoye'u-s-sanoye" kabi asarlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan mazkur asarlarda Umar Roduyoniyning "Tarjumonu–l-balog'a" asari va uning mohiyatiga oid ma'lumotlar uchraydi. Muhammad Umar Roduyoniy asar so'zboshisida fors tilida bunday asar yo'qligi tufayli uni yozishga kirishganligini aytib o'tadi. Sanoe' ilmi haqidagi dastlabki arab tilida yozilgan Imom Nasr ibn Hasan Marg'inoniy "Mahosinu –l- kalom" asariga tayanadi. Bu ikki asarni Ahmad Otash ilk bor muqoyasa qilgan, olib borgan ilmiy ishi natijasida quyidagi xulosaga kelgan: Roduyoniy 77 ta san'at turini ta'riflagan bo'lsa, al Marg'inoniy faqat 33 ta san'at xususiyatlarini keltirgan. Roduyoniy har bir san'atni tushuntirishga juda keng va atroflicha o'rin bergan bo'lsa, Marg'inoniy ba'zi san'atlarni to'la ba'zi san'atlarni juda qisqa izohlaydi. Shuningdek, Marg'inoniy misollarni asosan Qur'on va Hadislardan keltirgan bo'lsa, Roduyoniy asosan arab va fors tilida yaratilgan badiiy adabiyot namunalaridan misollar keltiradi. Ahmad Otash 1949 –yilda asar faksimilesi va transliteratsiyasini nashr qiladi hamda asarga

mukammal izohlar tizimini ishlab chiqadi. Asarni hamma Farrux Sistoniyga tegishli deb o'ylab yurgan, ammo bu fikrning noto'g'ri ekanligini asarning asl muallifi aslida Umar Roduyoniy ekanligini ham, Ahmad Otash aniqlagan. Olimning "Tarjumu-l-balog'a" asari bo'yicha ko'plab ma'lumotlarni keltirganligiga yuqoridagi asosli fikrlar orqali guvoh bo'ldik. Ushbu asar bo'yicha kengroq fikr yuritgan shaxslardan yana biri Xudoy Sharipovdir.

Olim 1987 –yilda "Donish" nashriyotida asarni joriy alifboda so'zboshi va izohlar bilan nashr ettirdi.³ Shuningdek, ushbu asarga doir ma'lumotlar tojik olimi Musulmonqulovning "Fors – tojik mumtoz poetikasi (X –XV asrlar), G. To'ychiyevaning "Fors –tojik aruzi risolalari"⁴ asarida ham keltirib o'tilgan. Mustaqillikdan so'ng H.Boltaboyev va D. Yusupova "Sharq mumtoz poetikasi" asarining "Badiiy san'atlar talqini" bo'limida asardan olingan o'ndan ortiq badiiy san'atlarning tarjimasini keltiradi.⁵ Lekin yuqoridagi ishlarda "Tarjumu-l-balog'a" zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilmagan edi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishidan ko'zlangan maqsad Umar Roduyoniyning "Tarjumu-l-balog'a" asarini to'laroq holatda yoritish, boshqa badiiy san'atlarga oid manbalar bilan o'xshash va farqli jihatlarini o'rganib, uning adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega ekanligini dalillarga asoslangan holatda aniqlash.

Bu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagi masalalarni hal etish asosiy vazifa qilib olindi:

1. "Tarjumu-l-balog'a" asarini zamonaviy o'zbek tiliga o'girish.
2. Asarning tarkibiy tuzilishini o'rganish.
3. Asardagi badiiy san'atlarning nazariy asoslari bayoni bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish.
4. "Tarjumu-l-balog'a"dagi she'riy san'atlarni shakl va ma'no munosabati bo'yicha tasniflash.

³ Родуёний У.Матбааи нашриёти «Дониш», Душанбе,1987

⁴ Тўйчиева Г. Форс арузи рисоалари. Тошкент -2008

⁵ Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси.Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. Тошкент -2008.

5. Asarda mavjud bo'lgan, badiiy san'atlar bilan keyingi davrda yaratilgan asarlardagi she'riy san'atlarning o'zaro bog'liq va farqli jihatlarini aniqlash.

6. Asarda keltirilgan badiiy san'atlar qay darajada o'zining sofliğini saqlab qolganligini o'rganish.

I BOB. UMAR RODUYONIYNING “TARJUMONU –L – BALOG‘A” ASARI FORSIY ILMI BADI‘GA DOIR ILK MANBA SIFATIDA

I.1. Ilmi badi‘ haqida ma‘lumot

Ming yillar davomida shakllanib, san‘at nomini olgan badiiylik vositalari faqatgina she‘r bezagi emas, balki shoir niyatini o‘quvchiga yetkazuvchi vosita, muallifning rangin tuyg‘ular olami haqida tasavvur beruvchi manba yoki shoir ko‘nglini kitobxon didi va zavqi bilan bog‘lovchi rishta ham sanaladi. Ana shu ma‘noda she‘riy san‘atlar mumtoz adabiyotshunoslikda ilmi badi‘ nomi bilan sharaflangan va unga ilmi adab tarkibiga kiruvchi mustaqil ilm turlaridan biri deb qaralgan.

Biz o‘qib – o‘rganishimiz davomida shunga amin bo‘ldik, badiiy san‘atlarga bag‘ishlangan ilk asarlar johiliya davrida yoki islomning ilk xalifalari zamonida shakllangan, ammo bu san‘atlar xalq zakovati va badiiy belgisi sifatida qadimdan mavjud bo‘lgan. Xalqimizning boy ma‘naviy qadriyatlari aks ettirilgan “Avesto” tarkibidagi miflardan boshlab O‘rxun –Enasoy obidalarigacha paydo bo‘lgan manbalarda va ulardan keying asarlarda ham san‘at nomini olgan badiiy tafakkur uchraydi. Fikrimizni yanada aniqroq dalillash uchun hammamizga ma‘lum va mashhur bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati –t-turk” asaridagi mansur yoki manzum parchalarning badiiyligi tekshirilganda, ular qaysidir jihati bilan she‘riy san‘atga aloqador bo‘lib chiqadi.

Insoniyat ma‘naviyati tarixida yangi e‘tiqodiy davrni boshlab bergan islomning vujudga kelishi va ma‘lum hududlarga tarqalishi tufayli oltin asridan XX asrning so‘nggiga qadar kechgan islomiy manbalarni o‘rganganda nazokat va did bilan yaratilgan she‘riyat va nasr namunalarini uchratishimiz mumkin. To‘g‘ri, ular ma‘naviy yoki lafziy deya ajratilmagan, ammo o‘qib turgan holatda qaysi biriga kirishi mumkin ekanligini anglay olamiz. Yuqorida keltirilgan sabablar orqali mumtoz adabiyotimizning shakllanishiga sabab bo‘lgan asarlarda, zukko

allomalarning poetikaga doir ishlarida badiiy san'atlarning yuksak namunalarining "Qur'oni Karim" va "Hadis"da kuzatilganligini isbotlovchi fikrlar anchaginani tashkil etadi.

Arab mumtoz poetikasining asosi sanalgan Abdulloh ibn Mu'tazzning "Kitobu -l-badi'" asarining muqaddimasida "mazkur kitobda biz keying davr (ulamolari) "badi'" deb atagan ilmning bob va fasllarida Qur'on tilida, Rasululloh (s.a.v.) hadislarida, sahobalar va tobe'nlarning so'zlashuv tilida, mutaqaddim shoirlarning she'rlarida uchraydigan badiiy ifodalarni tasniflab chiqdik" deyish barobarida istiora san'atiga misol keltirar ekan, avval "Alloh taolo kalomidagi badi' so'zlardan: Innahu ummul kitabi li -dina-l-aliu-l-hakim...(Bu albatta, Kitoblar onasi (ummu-l-kitob)dir va u oliy va donishmandona (a'liu-l-hakim)dir)" kabi iqtiboslar mavjudligi haqida ham ma'lumotlar mavjud. So'ngra asarda "Hadislardagi badiiyat" rukni bilan "Sizni ham avvalgilarning kasalligi yengibdi buxl (baxillik) va hasad ustarasi bo'g'zingizga tegibdi" so'zlari keltirilgan.⁶ Keyin "Ali (r.a.) aytadi: "Bilim qulfdir, savol kalitdir" hikmatidan so'nggina "Mutaxaaxxir shoirlarning so'zlaridagi badiiyat namunalaridan Molik ibn Dinor aytadi: "Fikrsiz ko'ngil vayronidir". Bu va shunga o'xshash dalillar shuni ta'kidlaydiki, she'riy san'atlardan istiora haqida gap ketar ekan, avval kitoblarning onasi deya "Qur'oni Karim"dan, keyin esa, "Hadis"dan yoki payg'ambarimiz so'zlaridan, so'ng esa xulafoi roshidin va sahobalar, tobe'nlar va ana shundan keyingina eski va yangi shoirlarning she'rlaridan namuna sifatida misollar keltirish ilmga xos bo'lgan madaniyatlardan biri bo'lgan. Arab mumtoz poetikasi asoschilari Nasr binni Hasanning "Mahosinu -l-kalom" ("Go'zal so'zlar"), Qudama ibn Jafarning "Naqdu -sh -she'r" ("She'r tanqidi"), Johiz va Ibn Xaldun asarlarida ham ayni shu jihat juda ham ustivor hisoblangan. Hatto X asrda arab olimi Rummoniy (909 -916) faqat "Qur'oni Karim"dagi badiiy san'at namunalarini to'plab, sharhlashga maxsus kitob bag'ishlangan. Bunday qur'oni asos bilan badiiy san'atlarga yondashish Abu Hilol Asqariy(v. 1004)ning "Kitobu

⁶Bu haqida to'laroq ma'lumot olish uchun qarang: Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. Тошкент -2008. -Б.221.

–s –sina’atayin” (“San’atlar kitobi”) Ibn Rashiq (999-1064)ning “Al –Umda“, Baqilloniyy (v.1013)ning “I’jazu –l- Qur’on” asarlarida ham aks etgan bo‘lib, so‘ngra adabiy –ilmiy an’anaga aylangan.

Avval arab (mamlakatlari)da boshlangan bu intizom so‘ngra ajam (fors – turk)ga ko‘chgan. Bizning vatandoshlarimizning arab tilida yozilgan asarlarida ham, jumladan, Abu Abdulloh Xorazmiyning mashhur lug‘ati “Mafotuhu –l-ulum” (“Ilmlarning kalitlari”)da yoki Yusuf Sakkokiyning “Miftohu –l-ulum” (“Ilmlarning kaliti”)singari asarlarida ham shu tartib ish bergan.

Abdu –l –Qahr Jurjoniyning o‘nlab risolalarida poetika masalalari aks etgan bo‘lsa-da, uning ushbu mavzuidagi “Kitobi asroru –l-balog‘a “ (“Balog‘at sirlari kitobi”) asarida badiiy san’atlar muammosi izchil va ancha keng bayon qilingan bo‘lib, bu sohada qalam tebratgan ko‘pgina fors shoirlari ham uning asariga murojaat qiladilar.

Fors tilidagi ilmi badi’ning ibtidosi Umar Roduyoniyning biz o‘rganayotgan “Tarjumonu –l –balog‘a“ (“Balog‘at tarjimoni”) asari hisoblanadi. Muallif haqida deyarli ma’lumot uchramaydi, birgina ushbu asari bizgacha yetib kelgan. Faqat shu asar orqali muallifning XI asrning ikkinchi yarmida yashaganini bilishimiz mumkin. Umar Roduyoniyy nomi Roshididdin Vatvot, Yoqut Hamaviy, Davlatshoh Samarqandiy, Hoji Xalifa, Lutf Alibek Ozar, Rizoqulixon Hidoyat asarlarida hurmat bilan tilga olingan. “Tarjumonu –l –balog‘a“ haqida turk olimi Ahmad Otash “Oriens“ majallasi (1948)da ma’lumot bergan, oradan bir yil o‘tgach, asarni nashr qildirgan. Ushbu asar 1961 –yilda Eronda nashr etilgan. Asarning har ikkala nashrlari (Istanbul va Tehron) asosida Xuday Sharipov yuqorida nomi keltirilgan asarlardan parchalar olib, “Muntaxabi “Tarjumonu –l –balog‘a“ nomi bilan 1987 –yili Dushanbeda nashr qildirgan. Muhammad Umar Roduyoniyy muqaddimada fors tilida bunday asar yo‘qligi tufayli uni yozishga kirishganligini, sanoe’ ilmi haqida arab tilida yozilgan Imom Nasr ibn Hasan Marg‘inoniyy “Mahsanu –l–kalom“ (“So‘z go‘zalliklari”) asariga tayanib yozganligini aytib o‘tadi.

Ulardan keyin yashagan avlodlarda ham, o‘zlaridan oldin yashagan ijodkor asardan ozuqa olish an‘anasi mavjud bo‘lgan. Yuqorida nomlarini tilga olganimiz: Nasr ibn Hasanning “Mahosinu –l –kalam“i va Muhammad Umar Roduyoniyning “Tarjumonu –l –balog‘a“ asarlari bilan tanishib chiqqan xorazmshohiylarning saroy shoiri bo‘lgan Rashididdin Vatvotning “Hadoyiqu –s –sehr fi daqoyiqu –sh –she’r “ (“She’r nazokatidan yaratilgan sehirli bog‘lar“)nomli ellik besh bobdan iborat bo‘lgan asarining har bir bobi bir poetik san‘atga bag‘ishlangan va ilovada yana sakkizta san‘at haqida to‘xtaladi. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, olim arab va fors she’riyatidagi oltmish uchta san‘atning tabiatini o‘rganadi va ularga “Qur’oni Karim“, “Hadisa“ so‘ngra esa arab va fors shoirlari ijodlaridan namunalar (arab adiblaridan uch yuzi beshta, forslardan ikki yuzi to‘qqizta) keltiradi. Bizga ma’lumki, ilmi badi’ ilmi adab tarkibidagi ilmi aruz va qofiya ilmi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ayni shu holatlarni hisobga olgan Vatvot o‘z asarining dastlabki qismida aruz va qofiya ilmi bilan bog‘lanmagan to‘qqiz, so‘ngra esa, qasida va ruboiy bilan bog‘langan va ularda ko‘p qo‘llaniladigan uch san‘atning turini gapirib o‘tadi. Shuningdek, asarda ayrim san‘atlarning turli ko‘rinishlari, jumladan, tajnis san‘atining yetti xil ko‘rinishi, maqlub san‘atining esa, to‘rt xil ko‘rinishi haqida ma’lumot berib o‘tadi. Yana asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, asar tor doirada emas, u keng qamrovli bo‘lib nafaqat she’riy janrlarning o‘zini, balki nasriy asarlardan namunalar keltirilganligi bilan qimmatli hisoblanadi. “Tarjumonu –l –balog‘a” va “Hadoyiq u –s –sehr” asarlari garchi bir tilda yaratilgan bo‘lsa–da, ayrim san‘atlarning atalishida asarlar o‘rtasida farq mavjud, jumladan, “Tarjumonu –l- balog‘a“da muqtadab, mutobaqa, mujarrad, i’natu –l –qarina deb nomlangan san‘at turlari, “Hadoyiqu –s –sehr“da ishtiyoq, raddu –l- a’juz, hazf, tazminu –l –muzdavaj deb nomlangan. Tajnis va tashbihning ko‘rinishlari ham turlicha istilohlar bilan keladi. Misol uchun, tajnisi mutlaq-tajnisi tomm, tajnisi muraddad –tajnisi mukarrar; tashbihi makniy – tashbihi kinayat, tashbihi muzdavij –tashbihi masviyyat kabi farqli jihatlar mavjud. Ammo bir jihat ham o‘rinli hisoblanadi bu ikki ijodkor o‘z asarlarini ma’naviy va lafziyga bo‘lib tartib bilan joylashtirmagan, chunki u davr uchun

bunday holat xarakterli bo‘lmagan. Bundan tashqari fors tilida badiiy san’atlar tasnifiga bag‘ishlangan Husayn Voiz Koshifiy, Shams Faxriy, Toj Xalaviy va Sharaf Ramiyning asarlari ham yozilgan edi. Tojik olimi R. Musulmonqulovning “Персидско-таджикская классическая поэтика” asarida keltirilishicha, ular ilmiy yangilik jihatdan u qadar ahamiyatli bo‘lmagan.

Forsiy adabiyotda badiiy san’atlarga bag‘ishlangan asarlarning eng mukammalini Atoulloh Husayniy “Badoye’u-s –sanoye’ “ (“San’at yangiliklari”) ni yaratdi. Asarda jami bo‘lib, 220 dan ortiq san’at turlarini farqlagan va ularni lafziy san’atlar, ma’naviy san’atlar hamda lafziy –u ma’naviy san’atlar kabi uch xilga taqsimlab har biriga izoh bergan. Atoulloh Mahmud Husayniy Alisher Navoiy ning ta’rifiga ko‘ra, ”Bo vujud –u donishmandliq, she’r –u muammov –u sanoyi’da dag’i mahorat paydo qildi... Ammo sanoyi’da kitobe tasnif qiliptur “Badoyi’-i Atoyi“g’a mavsumdir. Bo vujudi ixtisor, maqlubi mustaviy san’atidankim, andin mushkilroq san’at bo‘lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

Shakardaxano g‘ame nadorid ,

Dayro daniyi mug‘ona darkash.

Aning tab’i diqqatig‘a bu bayt dalili bastur”⁷

Buyuk bobokolonimiz Navoiyning yuqorida biz misolini keltirgan bir baytida, balki forsiy tilda yaratilgan ilmi badi’ga oid asarlarning eng mikammali va a’losi ekanligi bilan ham so‘z o‘z isbotini topadi. Asarda muallif o‘zi haqida ko‘pam kamtarlikka bormasdan “Umrinning boshlarida, farog‘at yoshlarida bu kaminada dilrabo nazm –u san’atkorona nutqqa tabiatan komil bir mayl bor erdi va imkon boricha ushbu fan bila mashg‘ul bo‘lur erdim. Tangriga hamd –u shukrkim, ul asarlardin har nekim, zamona sahifasida zohir bo‘lsa, ulug‘ –u kichik qoshida manzur-u maqbul bo‘ldi” deb yozadi. Bunda muallifning niyati oydinlashadi u balog‘at yoshida badiiyat ilmiga oid kitob yozmoqchi bo‘layotganligini aytmoqchi.

⁷ Навоий А. Мажолису-н-нафоис (Илмий –танқидий матни нашрга тайёрловчи С.Ғаниева). –Т.: Фан, 1961.- 6.141-142.

Turkiy tildagi poetikaga oid XV asrning eng noyob durdonalaridan biri Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu –l –balog‘a“ (“Balog‘at fanlari“) asarida forsiy “ilmi badi“lar tajribasi umumlashtirilgan, asarda tahlilga tortilgan san‘atlar sonining ortishi bilan she‘riyat na‘munalarining badiiyati ham chuqurlashib, mavzu va janr doirasi kengayib borgan.

Muallifning yozishicha, ”har aqsomi sinoat va anvo‘i balog‘atkim, fusaho va balog‘a arosinda mo‘tabardur, majmu‘ini jam‘ qilib, har bir san‘atqa turkiy lafz birla misol kelturub va kechgan zurfo va shuaroning bu sinoat birla tazyin qilg‘an arabiy va forsiy nazm va nasr so‘zlarinda nazr kelturduk. Va ba‘zi yerda “Kalomi majid “tin va Rasul alayhi – s-salom hadisidin naql qilduq”. Demak, balog‘at navlari va san‘at taqsimlariga doir barcha fikrlarni jam‘ qilgan alloma arab va fors tillaridagi nasr va nazm namunalarini tergan va quyidagi badiiy san‘atlarga ta‘rif va misollar keltirgan: Va majmui sano‘ekim, balog‘at ahli e‘tibor qilurlar, bu turur: tarsi’, tarsi’ maat –tajnis, tajnisi tom tajnisu –s –zoyid, tajnsu –n –noqis, tajnisu –murakkab, tajnusu –l-mutarraf, tajnisu –l –xat, tas’hif, tashbehi mutlaq, tashbihi –l –mashrut, tashbihi –l- kinoyat, tashbihi –t –tasviyat, tashbihi – l-aks, tashbihi –l –izmor, tashbihi –t-tafzil, tafsiru –l- jalo, tafsiru –l –xafo, tazmin, tazminu –l- muzdavaj, tansiqu –s –sifot, ta’kidu –l –madh, bimo yushbihuzzam, tarjima, taajjub, tajohul –l –orif, xayol, ihom, va ihomu –t –tom, ashkol, e’not, ibdo’ irsolu –l –masal, irsolu –l –masalayin, ifroq fi – s –sifat, ishtiqoq, iltifot, intiboh, iqtibos, istifhom, istidlol, *istidrok*, istiora, maqlubu –l –mustaviy, mutazod, murootu –n –nazir, mutanosib, mutarodifi matlun, musalsal, mutazalzal, muxtamiluz zi –d –dayn, muvajjah, mukarrar, malih, mukarrari qabih, maqta’, mavsil, mushajjar, murabba’, mulamma’, mujarrad, muvashshah, muammo mag‘lata, lug‘z, raqto, xayfo, baroati istihlol, raddu –l –matla’, raddu –l fajr, ala s- sadr, laffu nashri mushavvash, tard –ul –aks, xashfu –l –malih, xashvu –l qabih, xashvu –l- mutavassit, husnu-l-matla’, husnu –l –taxallus, husnu –t –talil, husni talab husnu –l maqta’ at –tarzih .”

Shayx Ahmad Taroziyning yana bir ulkan xizmatlaridan biri, u o‘z asarini turkiy tilda yozish bilan cheklanibgina qolmasdan, ayni shu tilda ijod qilgan

ellikdan ortiq shoir va nosirlarning sara asarlaridan namunalar keltirgan, ayni shu jihatlari bilan asar ahamiyatli hisoblanadi. Bir qancha fan uchun kerakli bo'lgan dalilari bilan esa asar ilmi badi' uchun qimmatli sanaladi. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, asarda umumiy ta'rifdan so'ng misol berilmagan o'rinlar ham mavjud, shunday holatlarda muallif o'z ijodidan namunalar keltirib, talqindagi san'at turining o'zbek kitobxoniga to'la va tushunarli bo'lgan tarzda yetib borishiga harakat qilgan.

Ilk davrlar va o'sha asrlarda yaratilgan asarlar haqida so'z yuritdik, endi navbat XX asrning boshlarida ilmi badi'ga bag'ishlanib yozilgan asarlarga keldi. Shu o'rinda ularga to'xtalib o'tsak, Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari", Fitratning "Adabiyot qoidolari" asarlarib mafkuraviy tazyiq ostidagi davr mevasi bo'lgani uchun ham endi ularda "Qur'oni Karim" va "Hadis"dagi ilohiy kalim, Rasululloh so'zlari, xulafoi roshidin, va sahobalar nutqiga murojaat qilishlar o'z -o'zidan tushib qolgan. Har bir san'at haqida berilarkan, uning qisqa ta'rifi bilan misol keltirilish va ayrim o'rinlardagina bu misollarni sharhlash urf bo'lgan. XX asr o'zbek navoiyshunoslari Oybek va Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton va Alibek Rustamovning risola va maqolalarida Navoiy "ijodxonasida"gi go'zal unsurlarlar sifatida she'riy san'atlarga murojaat qilingan. Bu yo'nalishda bir necha o'nlab maqolalar yaratgan, "Navoiy poetikasi"ni jiddiy o'rgangan va o'z kuzatishlarini qariyb ellik yildan beri o'zbek kitobxonlariga yetkazib kelayotgan olim Yoqubjon Is'hoqovning birgina "badiiy san'atlar" talqiniga doir ishlari bilan cheklanadigan bo'lsak ham, olimning mumtoz adabiyotimizning bilimdonlaridan biri sifatida adabiyotshunoslik tarixiga kirishiga shubha yo'q. Xorijiy olimlarimiz tomonidan "стилистические фигуры" deb talqin qilingan adabiy hodisalarga nazariy javob sifatida tayyorlangan "So'z san'ati so'zligi" asari she'rshunoslikda barcha she'riy san'atlar (xolislik uchun Anvar Hojiahmedov va Vahob Rahmonovning qator risolalarini eslash barobarida) haqidagi risolalardan tubdan farq qiladi.

Boisi bu ilmiy risolalar alifbo tartibida shakllantirilgani bizni qiziqtirgan san'at turi va namunasi oson topilishidagina emas, balki ularga berilgan ta'rif va

izohlar aniqligi bugungi o'zbek kitobxoni didi va malakasiga muvofiqligi uchun ham ushbu so'zlik har bir adabiyot muallimi, talaba va iqtidorli o'quvchilarning stolidan doimiy o'rin olishga arziydi.

Demak, mumtoz adabiyotshunoslikda eng qadimgi ilm turlaridan biri sanalgan ilmi badi', ya'ni badiiy san'atlar haqidagi ilm doimo yangilanishda va taraqqiyotda ekanini unutmaslik kerak.

1.2. “Tarjumonu-l-balog‘a” asarining yaratilish tarixi va tarkibiy tuzilishi

“Tarjumonu-l-balog‘a” asarining yaratilish tarixi haqidagi dastlabki ma’lumotlar risolaning muqaddimasida keltirilganligini ko‘ramiz. Muallif muqaddimada o‘z asarini tartib berishda arab olimi Xoja Imom Nasr ibn Hasanning “Mahosinu-l-kalom” asaridan foydalanganligini va uni o‘z davrining mashhur shoiri Farrux Seyistoniya taqdim etganligini aytadi: “Va falon majlisda uning nusxasini Farruxga taqdim qildim. U ulug‘ podsho (sadr) chuqur ilm va hunarga ega edi, donolar aytur: “Agar manfaat bo‘lmasa, daryoga yomg‘ir tomchilari tushmaydi”. “U shunday farmoyish berdiki, har kimsa ushbu ilmdan bahra olsun va ushbu kitobdan nusxa ko‘chirulsin, uning nomi to abadiy tillarning boshida aytilsun hamda kitobning ichiga kiritilsun.” Bu gaplar asarning muqaddima qismida keltirilgan shunga asoslangan holda kitob zamona shohiga yoqqan degan fikrni ham bemalol ayta olamiz, chunki muallifning o‘zi asarga o‘sha paytda qanday baho berilganligini ma’lum etib turibdi.

Asar haqida: “Ba’zi olimlar Roduyoniyning kitobi arab olimlari risolalarining oddiy tarjimasi xolos”⁸, - deb yanglish fikr bildirishadi. Aslida esa bu fikr noto‘g‘ri, chunki u arab olimlarining asarlaridan ilmiy mulohaza yuritish uchungina foydalangan. Bu ma’lumotlardan asarning yozilish davri deb XI asrning 80-yillarini taxmin qilish mumkin.

Asarning nazariy asosini Xoja Imom Nasr ibn Hasan Marg‘inoniy (X asr) ning “Mahosinu-l-kalom” asari tashkil qilgani holda muallif yana ikki ijodkorning ilmi bade‘ga doir asarlaridan foydalanadi. Bular Muhammad bin Dovud Isfahoniy (IX)ning “Kitobi Zuhra” va Ibn Mu’tazzning “Kitobu-l-bade’” asarlaridir. Lekin muallif ushbu asarlarni tayanch manba qilib olsa-da, ularga ijodiy yondashadi, ushbu asarlardagi badiiy san’atlar tasnifi, ilmiy matnlarni joylash tartibinigina o‘z risolasi uchun asos qilib oladi.

“Tarjumonu-l-balog‘a” asari arab tilida yaratilgan ilmi bade‘ga doir manbalardan badiiy san’atlar miqdorining ko‘pligi va har bir san’at turiga alohida

⁸ Тўйчиева Г.Форс арузи рисоалари.Тошкент- 2008.-Б.78

fasl ajratilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, Xoja Imom Nasr ibn Hasanning “Mahosinu-l-kalom” asarida 33 san’at turi keltirilgan bo’lsa, “Tarjumonu-l-balog’a”da 77 san’at turiga izoh berilganligini ko’ramiz. Agar birinchi asarda ba’zi san’atlar ancha batafsil sharhlangan, ba’zilarining esa faqat nomlarini keltirish bilan cheklanilgan bo’lsa, “Tarjumonu-l-balog’a”da har bir san’at avval nazariy jihatdan asoslanib, keyin unga bir necha misollar keltirilganligini ko’ramiz. Shunindek, Xoja Imom Nasr ibn Hasanning asarida misollar asosan Qur’oni Karim va hadislar, sahobalar va tobeinlarning suhbatlari asosidagi rivoyatlardan olinganligini ko’zatish mumkin. Bu haqda muallifning o’zi shunday yozadi: “Mazkur kitobda biz keying davr (ulamolari) “Badi’ ” deb atagan ilmning bob va fasllarida “Qur’on” tilida, Rasululloh (s.a.v) hadislarida, sahobalar va tobe’inlarning so’zlashuv tilida, mutaqaddim shoirlarning she’rlarida uchraydigan badiiy ifodalarni tasniflab chiqdik”. Umar Roduyoniy asarida esa misollar ko’proq fors tilida yaratilgan badiiy adabiyot namunalaridan keltirilganligini kuzatishimiz mumkin.

Muhammad ibn Umar Roduyoniyning “Tarjumonu-l-balog’a” asari muqaddima, 77 faslni o’z ichiga olgan asosiy qism va xotimadan iborat. Muqaddimada, yuqorida ko’rsatilganidek, risolaning yozilish tarixi va unga asos bo’lgan nazariy manbalar haqida so’z boradi. Ishning asosiy qismi 77 fasldan iborat. Har bir fasl alohida badiiy san’at sharhiga bag’ishlangan. Demak, aytish mumkinki, risolada jami 77 san’at turi izohlangan. San’atlarni izohlashda dastavval muallif keltirilayotgan san’atning lug’aviy ma’nosiga to’xtaladi, so’ng uning mohiyatini mumkin qadar batafsil tarzda bayon qiladi va fors-tojik she’riyatidan bir nechta misollar keltirgan holda uni dalillaydi. Ba’zan bir san’at izohi uchun o’nga yaqin shoir she’riyatidan baytlar keltiriladi.

“Tarjumonu-l-balog’a” asari *tarsi’* san’atining izohi bilan boshlanadi. Agar ilmi bade’ga doir arab tilidagi manbalarni kuzatadigan bo’lsak, ularda ilk san’at sifatida istioraning keltirilganligini ko’ramiz. Muhammad ibn Umar Roduyoniy *tarsi’* san’atini “oliy va baland” martabada deb ta’kidlab, uni barcha badiiy san’atlarning ibtidosi deb hisoblaydi. Muallif bunda ushbu san’atdagi o’ziga xos

jihatlar: baytdagi barcha soʻzlarning oʻzaro teng, vazndosh va qofiyadosh boʻlishini nazarda tutadi. Aynan shu jihat ilmi badeʼga doir keyingi risolalar: Rashiddin Vatvotning “Xadoyiqu-s-sehr”, Shams Qays Roziyning “Al moʻjam”, Atoulloh Husayniyning «Badoyeʼu-s-sanoyeʼ» va boshqa asarlar uchun anʼnaviylik kasb etdi. Atoulloh Husayniyning asarida tarsiʼ sanʼatiga quyidagicha taʼrif beriladi: “Aksar arab fusahosining qavligʻa koʻra andin iboratturkim, ikki boʻlak kalomning, xoh nazm boʻlsun, xoh nasr, har boʻlagidagʻi anga muqobil lafz bila vaznda teng boʻlgʻay. Baʼzilar yaqinliqni ham shart qilmapturlar. Ammo ajam shuarosi nazdida lafzlarning oxirgʻi harfta muvofiq kelmagi sharttur. Oxirgʻi harftin murod raviy va aning nasrdagi oʻxshashliklaridir. Bilmak kerakki koʻmakchilarning takroridin xoh nazmda, xoh nasrda, hech xavf yoʻqtur”.

Risoladagi fasllarning tarkibiy tuzilishi haqida toʻlaroq tasavvur hosil boʻlishi uchun tarsiʼ sanʼatiga doir fasldan parcha keltiramiz:

Tarsiʼ –porsiyda “ipga gavhar termoq” boʻlib, bu oʻrinda uning bayoni shuki, kotib va shoirlar nazm- u nasrda baytning qismlarini boʻlak- boʻlak qiladilar, toki har bir soʻz oʻzaro barobar va vaznda muvofiq boʻlsin hamda soʻzlarning avvalgi va oxirgi harflari bir-biriga mos boʻlsin. Abutolib Musʼabiy aytur:

Shakarkushan ast, yo suxangoʻyi man ast,

Anbarzaqan ast, yo sumanboʻyi man ast,

(Mazmuni: Shakar (bozorini) sindiruvchimi yoki mening soʻzlovchi yorimmi?)

Anbar iyaklimi yoki mening suman (yosuman guli) hidli yorimmi?)

Ushbu bayt tarkibidagi har ikki soʻz oʻzaro teng va vaznda muvofiqdir, chunonchi shakar va anbar, shikan va zaqan, suxan va suman, hamda goʻy va boʻy. Agar sheʼrning qismlari shu tariqa tuzilgan boʻlsa, uni tarsiʼ derlar. Va bu qismlar balogʻat ilmida baland darajada va sharif martabadadir.

Demak, yuqoridagilarga xulosa sifatida aytish mumkinki, Muhammad ibn Umar Roduyoniyning “Tarjumu-l-balogʻa” asari ilmi badeʼga doir forsiy tildagi ilk manba boʻlib, oʻzidan keyin yaratilgan fors va turkiy tildagi ilmi badeʼga doir

asarlarga ijodiy ta'sir ko'rsatdi. Uning tarkibiy tuzilishi va muallifning badiiy san'atlarga yondashuvi keyingi manbalar uchun nazariy asos vazifasini o'tadi.

Biz birinchi bobni yozish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Umar Roduyoniyning "Tarjumu-l-balog'a" asari ilmi badi'ga atalgan fors tilidagi ilk manba bo'lib, XI asrda yaratilgan.
2. Roduyoniy arab olimlari risolalaridan foydalangan holda, o'z asarini yozdi, u fors tili va adabiyotining milliy materiali negizida mustaqil nazariya yarata olgan ijodkor hisoblanadi.
3. Asar arab tilida ilmi badi'ga atab yozilgan asarlardan badiiy san'atlarning ko'pligi va har bir san'atga bir fasl ajratilganligi bilan ahamiyatli.
4. Asar 77 fasldan iborat bo'lib har bir fasl alohida bir badiiy san'atga teng.
5. Risolada jami 77 ta badiiy san'at turi keltirilgan.
6. Asarni muallif tarsi' san'atidan boshlaydi.
7. Har bir badiiy san'at avval nazariy holda izohlangan keyin esa, misollar orqali o'z amaliy isbotini topgan.
8. Asar keyinchalik shu mavzuga oid bir necha asarlar: "Rashiddin Vatvotning "Hadoyiqu-s-sehr fi daqoyiqu-sh-she'r", Yoqut Hamaviyning "Mo'jamu-l-udabo", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratu-sh-shuaro", Hoji Xalifaning "Kashfu-z-zunun", Lutfalibekning Ozarning "Otashkada", Rizoqulixon Hidoyatning "Majma'u-l-fusaho", Atoulloh Husayniyning "Badoye'u-s-sanoye"" yaratilishiga asos bo'ldi.

II BOB. “TARJUMONU – L - BALOG‘A” ASARIDA KELTIRILGAN BADIY SAN’ATLAR

2.1. Asarda keltirilgan lafziy va ma’naviy san’atlar

Lafziy san’atlar haqida so‘z yuritishdan avval uning asl mohiyati nima degan savolga javob berishimiz o‘rinli bo‘ladi. Kitoblarda keltirilishicha, lafziy go‘zallikning asosi, so‘zlarni ma’noga tobe qiladi, umuman barcha go‘zalliklarning asosi u deya baholanadi. Unda nutq ma’noni anglashilishiga, uning latofati, tarkibi va sog‘lomligiga hech bir xalaqit berilmaydi. Lafziy go‘zallik juda ham ko‘p va son–sanoqsizdir, lafziy san’atlar asarni badiiy til jihatdan barkamol, ta’sirchan qilib yaratish uchun muhim hisoblanadi.

“Tarjumonu –l-balog‘a“ asarida she’riy san’atlar lafziy, ma’naviy, mushtarak deya ajratilmagan, ammo qoidasiga mos tarzda ularni o‘zimiz ajratib olamiz, asardagi lafziy san’atlar deya quyidagilarni sanaymiz: tarsi’, tarsi’ vat – tajnis, tajnis-il–mutloq, tajnis-il–muraddad, tajnis is–zoid, maqlub, maqlub ul–mustaviy, maqlub ul –mujannah, muqtazab, muzoraa, muyobaqa, mutazod, e’not, e’not il–qarina, tansiq as–sifat, tardi aks, musammat, muvashshah, mulamma’, mujarrad, muqatta’, muvassal, musannaf, mukarrar, mudavvar va boshqalar kiradi. Endi ularning har biriga alohida to‘xtalamiz:

TARSI’ – arablarning qarashlariga ko‘ra, unda ikki bo‘lak so‘zning, xoh nazm bo‘lsin, xoh nasr, har bo‘lagidagi har bir so‘z ikkinchi bo‘lagida unga muqobil so‘z bilan vaznda teng bo‘ladi va oxirgi harfda muvofiq yoki yaqin bo‘ladi. Arab bo‘lmagan xalqlarning nazdida so‘zlarning oxirgi harfida muvofiq kelishi shart. Demak, tarsi’ haqida ikki xil qarash bor ular: birinchi guruhning fikriga ko‘ra tarsi’dagi so‘zlar vazndosh va qofiyali hech bo‘lmasa, qofiyaga yaqin bo‘lishi shart ekan, ikkinchi guruhning fikriga ko‘ra esa vazndosh bo‘lsa yetarli. Masalan, olam bilan odat birinchi fikriga ko‘ra tarsi’ hosil qilmaydi, ikkinchi fikrga ko‘ra esa hosil qiladi. Ikkinchi fikr tarsi’ saj’ turi deb hisoblash natijasida vujudga kelgan. Chunki saj’ning vazndosh turi ham bor. Mazkur olam va odat saj’- i mutavozindir.

Abutayiba Musabi tarsi'ga misol aytadi:

Shakarshikan ast, yo suxango'yi man ast?

Anbarzaqan ast, yo sumanbo'yi man ast.

Bundagi har bir so'z o'zaro teng va vazndosh, chunonchi, shakar va anbar, shikan va zaqan, suxan va suman gapimizga isbot bo'la oladi. Rudakiy aytadi: "nazmda radif uchun bo'lgan takrorning xavfi yo'q"dir, chunonchi unga misol degan:

Kas firistod ba satr andar ayyom maro

Ki, makun yod ba she'r andar bisyor maro.

Bu baytda ko'makchi ba takrorlangan va maro so'zi radif sifatida qo'llangan va bularning tarsi'ga zarari yetmagan. Baytning tarjimasi: (Ayyor yorim: "she'r orasida meni ko'p eslama!" degan satr bilan menga kishi yuboripti)bo'ladi. Yoki bo'lmasam, Qamariy Jurjoniy o'z qasidalarining oxirgi baytini boshdan-oxirigacha murassa' (tarsi' qilgan) bayt bilan yakunlaydi:

Uluv taxtat, kufv baxtat , fary korat, pari yorat

Kajin – mushkin, guzin-maskan, qarinxubon, muin –Yazdon

(Mazmuni: Taxting baland, baxting ham shu monand, ishing ezgu, yoring paridur,

Libosing mushkin, maskaning munosib, hamsuhbating xo'blar, madodkoring Yazdon (Xudo)dir).

TAJNISLI TARSİ'. Agar tarsi' bilan o'zga san'atlar qo'shilsa, u yanada go'zal bo'ladi. Bunda ikki xil san'at birdan qo'llaniladi, shunga ko'ra bayt yanada go'zal bo'ladi. Unsuriy misol keltiradi:

Fig'on az on du siyah zulfu g'amzagon, ki hame –

Bad-in zireh biburivu bad-on zi rah bibari.

(Mazmuni: Ul iki qora zulf-u ko'zlaringdan dodkim,

Biri bilan temir sovutni ham kesa olasan(hatto), ikinchisi bilan esa odamni yoʻldan chiqarasan).

Boshqasi aytur:

Bemorami korzoru tu darmoni ,
Bim oramu kor zoru tu dar moni.

(Mazmuni:

Men bemorman-u, sening janjallaring menga darmondur.

Qoʻrqamanki, nola-afgʻonlaring toʻxtab qolmasaydi).

Ahmad Votikiy Andorab hokimi uni josusning tuxmati bilan qoʻlga olgan vaqtda shunday degan edi:

On kas ki Andorab shavad oʻ beoshno
Goʻy, ki andar ob shavad oʻbe oshno.

(Mazmuni:

Kim Andorabdan boʻlsa u (bizga) doʻst emas,

Aytgilkim, u suv ichida (suzolmasdan)gʻarq boʻlsin)...

MUTAZOD. Mutazodning maʼnosi: “zid”, ”qarama qarshi”dir. Shoir-u kotiblar shunday sheʼr aytadiki, unda maʼno jihatdan ozaro zid soʻzlar jamlangan boʻlar, yaʼni tun va kun hamda ochiq va bogʻliq singari. Bu amalning nomini forsiygoʻylar “mutazod” derlar. Ammo ustodlar va Xalil Ahmad “mutobiq” (muvofig) demishlar. Shoir aytur:

Butu turki xubroʻy girafta ba chang, chang
Hamsola mekunad zi dil oʻ ba rohish jang
Qadu tanash sarv-u sim-u rux-u zulf roʻzi shab
Lab-u gʻamza noʻshu zahr, bar-u dil parandu sang.

(Mazmuni:Goʻzal yuzli turk nigori qoʻliga chang olganda

Yuragim unga yetish ish uchun har doim jang qiladi

Uning qomati-yu tani sarv-u siym,yuzi-yu zulfi kun va tun kabi.

Labi-yu soʻzi - asal va ogʻu, badani-yu yuragi -harir va tosh singaridir).

Labibiy aytur:

Gar Farruxy bimurd, charo Unsur namurd
Pire bimond der-u javone biraft zud.
Farzona biraftu zu raftanash hast ziyon,
Devonae bimond-u zi mondanash hech sud.

(Mazmuni:

Farruxiy o‘tdi olamdin, nechun Unsuriy ketmadi,
Qari bunda uzoq qoldi-yu, yoshi tez ketdi.
Donishmand ketdi-yu, ketmog‘i ko‘p ziyon,
Devona qoldi-yu, qolmog‘idin naf yo‘q).

Qamariy aytur:

Padidor ast adl-u zulm pinhon,
Muxolif andaku noseh farovon.

(Mazmuni:

Adolat oshkor-u zulm pinhon,
Dushman oz-u, nasihatgo‘y ko‘p).

Yuqoridagi baytda o‘zaro zid ma’noli so‘zlar jamlangan, ya’ni: adl-zulm, oshkor-pinhon, andak-farovon singari.

AKS. Lug‘atlarda “qayta takrorlash” degan ma’noni anglatadi, unda bayt tarkibidagi jumla va so‘zlarni hamda oxirgi so‘zni misra boshida takrolashni “aks” derlar. Aks ikki xil bo‘ladi: bayt tarkibidagi barcha so‘zlarni qayta takrorlash hamda faqat misra tarkibidagi so‘zlarni o‘rin almashtirib qo‘llash.

Va agar aks amali bayt tarkibida sodir bo‘lsa, bunday aksni “komil aks” derlar va agar misra tarkibida amalga ohsa, bunday aksni “maxraj”, ya’ni notamom (to‘liq bo‘lmagan)deb atarlar.

Va maxraj ham ikki turlidir: birinchi turini mutahodiy derlar va unda qayta takrorlangan jumla o‘z ma’nosini saqlar. Ikkinchi turini esa majro derlar va unda qayta takrorlangan jumla boshqa ma’noda kelur. Komili majro san’atiga misolni Unsuriy aytur:

Agarchi boshad tanho hama jahon bo ust
V-garchi bo o‘boshad, hama jahon tanhost.

(Mazmuni:

Agar u yolg‘iz bo‘lsa, hamma jahon u bilan birga,

Va agar u bilan bo‘lsa, hamma jahon yolg‘izdur)...

Va ammo aksi maxraji mutahodiy budir kim, Unsuriy aytur:

Bor bardoram b-aze dar birovam,

Birovam z-e daru bardoram bor.

(G‘amga botsam, bu yerdan ketaman.

Bu yerdan ketsam, g‘amga botaman).

Asarda shunday va shunga monand misollar orqali aksga doir fikr dalillangan.

MUVASHSHAH. Bu san’at “vashshah” so‘zidan olingan bo‘lib, ma’nosi “bo‘yni bog‘langan” demakdir. Bunda shoir qasida baytlaridagi avvalgi harflarni olib, she’rning asosini paydo qilur. Ajratilgan harflar birlashtirilsa, ma’lum bir so‘z hosil bo‘ladi...

Muvaqqariy aytur:

Dilduzdu dilrabo man on sa’taripsar

K-ovard umri man zi g‘ami hajri xud basar.

Rasme nixod ishqam bar man, ki sol-u moh

Shav, sabri xud furo‘shu g‘ami ishq man bixar

Yo jon ba changi ishq suporu majo‘y jang,

Yo yofa kun, tu jon-u dil-u din-u xud guzar.

Qore, kiro furo‘g‘u dil-u jon buvad chu tu,

Chora naboshadash zi g‘ami hol-u dardi sar

Mazmuni:

Dilni o‘g‘irlovchi mening dilbaroyim yosh

Yigitlarning ko‘nglini ovlaydi.

U mening umrimni o‘z g‘am-u hijroni

Bilan poyoniga yetkazadi.

Rasm-u odatdir uning ishqini menga

Ey yor, oy-u yillar bor bo'lsin-u, o'z sabringni menga sot, ishqimni sotib ol.

Yoki jonni ishq urushga topshirgil-u,

Boshqa urush qidirma.

Yoki yo'q qilgil-u dil-u jonni o'z diningga o'tkaz.

To'g'ri, kimnikiyondirsang, uning dil-u joni sening kabi bo'lur,

O, bu xalqning g'amiga-yu, boshning dardiga chora yo'qdir).

MULAMMA'. Shunday san'at turiki, unga ko'ra shoir o'z qasidasida bir xil vazn va bir xil qofiyada bir bayt forsiydan va bir bayt arabiydan aytur va bunda baytlarning tarjimai asosiy maqsad hisoblanmaydi.

MUKARRAR. Aslida mukarrar so'zi "qayta-qayta", "ust-ustiga" ma'nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san'at esa baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llashni nazarda tutadi.

Mo may bixostam zadan do'sh chom-chom,

Chun tu biyomadish, bimondem xom-xom,

Az odam andarun zi taborat kase namand.

K-o'ro xicho nakardast Munchik nom-nom.

(Mazmuni:

Biz tunda qadah –qadah may ichmoqni ixtiyor qildik,

Nechun sen kelmading, biz chorasiz qoldik.

Kelganlar orasida yaqin kishilardan hamma bor edi,

Munjik ularni nomma-nom sanay olmadi)

MURABBA'. Arabchadan olingan bo'lib "to'rtlik" degan ma'noni anglatadi, bu san'atda har bir misrani ham gorizantal, ham vertikal holatda o'qish imkoniga ega bo'lamiz va uni biz o'qiganimizda bir xil matn hosil bo'laveradi:

Az furqat-i On dilbar Man doim Bedoraman,

On k-az ishqash bo dardamu bemoram

Man doim bo dardam be munisu beyoram

Bedoramu bemoramu be yoramu chun zora.

Bu san'at Atoulloh Husayniyning "Badoye'u-s-sanoye" asarida ham uchraydi.

Unda san'atning mohiyati quyidagicha keltiriladi: "Murabba' andin iboratdurkim, to'rt misra yoki to'rt bayt aytilur, yozilg'onda ham bo'yig'a, ham eniga o'qisa bo'lur. Misralar murabba'i andog'dur(she'r):

Az furqat-i on dilbar man doim bemoram

On dilbar k-az ishqash bo dardam be munis-u be yoram

Man doyim bo dardam be munis u be yoram

Bemoram u bedoram u be yoram u g'amxoram⁹

Bu she'riy san'atning amaliy ifodasini biz turkiy shoirlar ijodida ham uchratamiz. Shulardan biri Muhammad Rizo Ogahiydir, ammo uning devonida Roduyoniy murabba' deb nomlagan san'at "musoviyattarafayn" tarzida keltirilgan.

Ul sho'xki ochildi xat-u ruxsori

Ochildi rayohinda yuzi gulnori

Xat-u yuzi besabr-u qarori man man

Ruxsori gulnori man man zori.

Xullas, lafziy san'atlar faqat nutqning (xususan, badiiy nutqning va ayniqsa, she'riyatning) bezagi emas, balki muayyan fikr, maqsadning yetuk badiiy shaklda ifoda topishi uchun xizmat qiluvchi muhim vositadir. Turli xil shaklda va ko'rinishda hosil bo'ladigan lafziy san'atlar "Tarjumonul-balog'a" asarida ilmiy jihatdan to'liq yoritib berilgan va ularning badiiyati yuksak namunali misollar bilan boyitilgan.

⁹Бу ҳақида тўлароқ маълумот олиш учун қаранг: Ҳусайний А. Бадойиёу-с-санойиё – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. Б. 107.

Asarda keltirilgan ma'naviy san'atlarga: tashbih, tashbih-il-mukano, tashbeh il-marcho' anhu, tashbeh-il-mashrut, tashbeh-il- ma'kus, tashbeh-il-muzdavaj, jam' va tafriq va taqsim, jam', tafriq, taqsim, jam va tafriq, jam va taqsim, tafriq va taqsim, tajohil-il-orif, iltifot, irsol-il masal irsol-il masalayn, tafsir il hafiy, tafsir-il chali (jaliy), husni talil, istitrok, savol va javob, kinoyat vat-tarsi, fil alvoz val muhojat, tazmin, tarjuma, fasl fi ta'kid-il-madhi bimo yoshbih-uz-zammi, fasli fi tarjumat-il-ahbor val-amsol val-hikam, taqrib il-amsol bil ab'yot, husni savol va talabi mujavorat, kalomich-jame' al-mav'izat va hikmat vash-shikvo, fasli fi ibdo', talovim, mutanofir, bayon-il asjo va boshqa bir qancha she'riy san'atlar kiradi.

Bizga ma'lumki, ma'naviy san'atlar nutqning ma'nosi-mohiyati bilan aloqador bo'lgan poetik san'atdir. Ma'naviy san'at ayniqsa, she'riyatda yuksak badiiylarning muhim omillaridan hisoblanadi, ammo ularning qo'llanilish darajasi har xil deb belgilanadi, chunki tasvirlash har bir ijodkorning individual uslubi va mahorati bilan belgilanadi. Ayni shuning uchun ham ularning misra yoki bayt tarkibida qo'llanilish darajasi har xil hisoblanadi.

Atoulloh Husayniy ma'naviy go'zalliklarni quyidagicha tariflaydi: "Bu ikki navdur. Biri uldurkim jami' arab fusahosi va ajam shuarosi qoshida sanoyi'g'a kirur, Ikkinchi nav'i uldurkim ajam shuarosi qoshida sanoyi' turkumindandur, ammo arab fusahosining bari bir bo'lib, ani nutqning zotiy go'zalliklaridin deb hisoblabturlarkim, aning bayoni ma'oniylar ilmi va bayon ilmining vazifasidadur, va badiiyat sanoyi'idin deb hisoblamabturlarkim, aning bayoni badi' ilmining vazifasidur, holbuki tamhidda zikr etilganidek ul oriziy go'zalliklardindur"

Endi yuqorida nomlari sanab o'tilgan ma'naviy san'atlarga birma bir to'xtalsak:

TASHBEH. Bir nimani bir nimaga o'xshatish ma'nosini anglatadi. Tashbih san'atkorga o'z taassurotlarini, fikr kechinmalarini obrazli ravishda yorqin bayon qilish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi. Tashbehning mohiyati so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatini ular o'rtasida mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki funksiya) nuqtayi

nazaridan qiyoslashdan iboratdir. Aniq hayotiy buyumlar, o'xshatish uchun tanlangan bo'lsa, haqiqiy tashbih, noaniq, mavhumiy tushunchalar tanlangan bo'lsa, majoziy tashbih hisoblangan.

Ma'rifiy misol keltiradi:

May bar so idash az sotkinae soya figand,
Gufti az lola pashizasti bar mohii shim.

(Mazmuni:

Bilagiga jomdagi sharobning soyasi tushdi,
Xuddi xonbaliqning yuziga lolaning dog'i tushgani kabi)

TASHBIHI MASHRUT. U shundayki, bir narsani ikkinchi narsaga bir shart asosida o'xshatadi Umar Roduyoniy aytadiki: "bu amal balog'at ilmdandir. Mantiqda shartli qiyosga nisbatan(*sillogizm*) atamasi ishlatiladi"- deydi. Unsuriy keltiradi:

Sarv astu but nigori man, on mohi chonvar,
Ar sarv sangdil buvadu but harirbar

(Mazmuni:

Mening nigorim, ul jon bag'ishlovchi oy sarvdir, but erur.
Agar sarv toshbag'ir bo'lsa, but *nozikbadan* erur)

Rodakiy aytadi:

Ba sarv monad gar sarv lolador buvad,
Ba mo'rd monad, gar mo'rd ro'yad az nasrin.

(Mazmuni:

Sarvga o'xshar *agar* sarvda lola bo'lsa,
Murdga o'xshar, *agar* murd nasrindan unsa. Bunda murd –barglari xo'shbo'y daraxt,nasrin –oq,sariq rangli gul).

TASHBIHI-U MA'KUS. Shoir bu san'atda ikkita bir-biriga zid narsani qiyoslash orqali juda go'zal misralarni yaratadi. Bu san'atning yana bir xususiyati shundaki: zid narsalarni o'zaro bir-biriga qiyoslab, xususiyatlarini o'zaro almashtiradi.

Unsuriy keltiradi:

Zi summi savoron-u gardi sipoh,
Zamin mohro‘-yu zami ro‘y moh.

(Mazmuni:

Otlarning tuyog‘i jangda yerga ko‘p tushdi, shuning uchun yer yuzi oyga o‘xshab qoldi. Changning ko‘pligidan esa oyning yuzi yerday bo‘lib qoldi deyilmoqda).

JAM’ (TANHO). Narsa va tushunchalarni biron belgi bo‘yicha baytda jamlab, ular o‘rtasidagi munosabat asosida biron obrazli fikrni ifodalash san’atidir. Umar Roduyoniy aytadiki: ”bir nechani o‘zida jam’ qilgan san’atni jomi’ derlar va bu san’at yashirin bo‘lmog‘i ham ravodir”. Misolga Qamariyning ushbu baytini keltiradi:

Moh gohe chu ro‘y –i yor-i manast
Gah chu man kajpushtu zor-u nazor.

(Baytning tarjimasi:

Oy ba’zan mening yorimning yuzi singari bo‘lsa,
Ba’zan menga o‘xshab bukur-u zor-u, ozg‘in holda bo‘ladi).

Bunda shoir oy va mashuq yuzin go‘zallikda jam’ qilgan. Go‘zallik jam’dir va u bu yerda yashirin tarzda qo‘llangan. Ikkinchi misrada o‘zini oy bilan bukuriligi sariq rangliligi va ozg‘inlig‘ini jam’ qilgan bu ochiq tarzda ifoda etilgan.

TAFRIQ. Bir xil bo‘lgan ikki narsaning orasiga farq solib, ularni bir-biridan farqlash san’atidir.

Abr chun tu kay ast naysone
Zar kam borad abri naysono.

TAQSIM. Bunda baytning birinchi misrasida turli belgiga ega bo‘lgan narsa yoki tushunchalarni to‘plab, keyingi misrada ularni muayyan belgilariga ko‘ra taqsimlash vositasida timsol yaratishni anglatadi.

Unsuriy aytadi:

On chi ro‘yrost, on shufta nargis andar guliston
V-on charorast, xufta sol-u mah bar gulston?

JAM' VA TAFRIQ. Bu san'at biror belgi asosida birinchi misrada jamlangan so'zlar - narsalar, tushunchalar nomlarini keyingi misrada bir-biridan farqlash, ulardan har birining farqli jihatlarini ta'kidlab ko'rsatishni nazarda tutadi. Shunisi ahamiyatliki, muallif sifatlarning ba'zan zikr etilishini, ba'zan esa zikr etilmasdan yashirin kelishini va ayrim holatlarda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni bir misrada keltirilishi mumkin ekanligini ham aytib o'tadi.

Misoli quyidagicha:

Man tu har du az guli zardem,
Chuz man az rangamu tu az bun.
Man varo bo'yam,ar turo cho'yam,
Tu maro bin, gar varo cho'n.

(Mazmuni:

Men va sen ikkovimiz sariq guldaymiz,
Mening rangim unga o'xshar, sening esa bo'ying
Men seni eslaganda uni hidlayman.
Sen menga qara, agar uni ko'rmoqchi bo'lsang).

JAM' VA TAQSIM. Adabiy san'atlardan biri bo'lib, narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni ma'lum belgi asosida bir misrada to'plab, so'ng ularni boshqa bir belgi asosida taqsimlash demakdir, ya'ni unda to'plangan bir nechaning har biriga muayyan bir nimaga o'xshatib nisbat beriladi.

Chahor chiz ba du chiz dod-u niz ham o
Ba xalq zo'hdu imon-u ba din salohu nizom

(Mazmuni:

U, ya'ni shoh ikki narsaga qo'shib, to'rt narsani ham berdi:
Xalqqa zohidlik va omonlik, dinga yaxshilik va rivoj).

TAJOHULU-L-ORIF. "Tanib - tanimaslikka olish" san'atidir. Bunda so'zlaguvchi biron narsani biladi, lekin o'zini bilmaslikka soladi.

Rudakiy aytadi:

Sarv ast on yo balo, moh ast on yo ro'y ?

Zulf ast on yo chavgon, xol ast on yo go'y?

(Mazmuni:

Sarvmi bu yo qomat, oymi yoki bu yuz,

Zulfmi bu yo chavgon, xolmi yo bu go'yo).

Rudakiy aytur:

Tanat yaku jon yakevu chandin donnish

Ey ajabo mardumi tu yo daryoi?

(Mazmuni:

Taning bir-u jon yolg'iz-u aqling beadam

Vo ajabo, odammisan yoki dengiz?)

Qare'u-d-dahr aytur:

Zamino pursitora gashtiy az gul,

Nadonam k-osmoni yo zamini!

(Mazmuni:

Ey zamin, gul ko'pligidan yulduz to'la osmondeksan,

Bilolmadim, yermisan yoki osmon?)...

ILTIFOT. Bu san'at "anglamoq" degan ma'noni anglatadi. She'riyatda so'zlovchi shaxsining ko'chishini ifodalaydi. Bu san'atni Roduyoniy oddiygina tarzda izohlagan bo'lsa, Atoulloh Husayniyning asarida oltita turga(birinchisi, so'zlovchidan tinglovchiga ko'chish; ikkinchisi uning aksidir; uchinchisi so'zlovchidan o'zgaga ko'chishni anglatadi va hako'zolar ifodalangan) bo'lingan bo'lib, ularning barchasi misollar orqali izohlangan.

Chuz on ki mastii ishq ast, hech masti nest,

Hamin balot bas ast, ey ba har balo xursand.

(Mazmuni:

Ishq mastligidan o'zga hech qanday mastlik yo'qdir,

Shu baloying yetarli, ey turli balolarga xursand)

IRSOLI MASAL. Mashhur she'riy san'atlardan biri bo'lib, she'riyat va nasrda biron fikrni ifodalash uchun bir baytga misol keltirmoq ma'nosini anglatadi, ammo uning ta'rifi bo'yicha turli xil tafovutlar uchraydi. Masalan,

“Tarjumonu-l-balog‘a”da : “Balog‘at jumlasidan yana biri shuki, shoir baytda hikmat keltiradi va u masal (tamsil)yo‘li bilan hosil qilinadi” - deyilsa, ”Xadoyiqu-s-sehr”da: bu san‘at shundan iboratki, shoir baytda mashhur bo‘lgan birorta bayt keltiradi deb tushuntiriladi.¹⁰

Misoli quydagicha:

Payvasta firistoy ba man, ey sho‘x, tu dushnom,
Xud lab bigusho, chand dehi bo‘sa ba payg‘om?

(Mazmuni:

Ey sho‘x, menga doim so‘kib noma yuborasan,
O‘zing labingni och, qachongacha xat orqali o‘pasan?)...

Bu she‘riy san‘atni Atoulloh Husayniy ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi deb aytgan. Birinchisi, masalning so‘z va tarkibi o‘zgarmaydi, ikkinchi hosil bo‘lish yo‘lida esa masalda o‘zgarish sodir bo‘ladi. Yana Husayniy o‘z asarida masal so‘zining asl ma‘nosi “yubormaq”dir deb keltirilgan.

IRSOLU-L-MASALAYN. Mashhurlarning aytib o‘tganiga ko‘ra, bir baytda ikki masal yoki bo‘lmasa, hikmatni misol keltirish san‘atidir.

Baytda ikkita maqoldan misol keltirilgan:

Mekasham xoriy-i tu, chun nabuvad gul be xor,
Mebaram ranj-i tu, chun ganch naboshad be mor.

(Mazmuni:

Gul tikansiz (xorsiz) bo‘lmaganidek, sen tufayli men xorlik ko‘raman, ganj ilonsiz bo‘lmaganidek, sening azobingni ko‘taraman)...

HUSNI TA‘LIL. Arabcha “chiroyli dalillash”, ”asoslashning go‘zalligi”, “yaxshi dalil keltirish orqali chiroyli asoslash” degan ma‘noni bildiradi. “Tarjumon ul-balog‘a”da bu san‘at haqida dastlabki ma‘lumotlar uchraydi. Unda shoir o‘zining birorta fikri yoki maqsadini asoslash uchun munosib dalil keltiradi. Bu dalil shoir bayon etayotgan fikr uchun real sabab bo‘lolmaydi, balki uni quvvatlash uchun keltirilgan poetik dalil bo‘ladi.

Zi bahri on ki hame gir‘yad abr be sababe,

¹⁰ Исҳоқов Ё.Сўз санъати сўзлиги.Т:Зарқалам, 2006,-Б.20.

Hame bixandad bar ro'y lolavu gul nor.

(Mazmuni:

Bulut sababsiz yig'lamayotganligi tufayli

Lola va gul yuzida olovli kulgi yashnab turgandek).

SAVOL VA JAVOB. Shunday san'at turlaridan biriki, bunda shoir har bayt yoki har misrada savol va javobdan foydalanadi. Unsuriy aytadi:

Har suole, k-az on guli serob

Do'sh kardam, hama bidad javob.

Guftasham: - Xur ba shab nashoyad did?

Guft: -Paydo, ba shab buvafd mahtob.

Guftam: - Az tu ky burda dorad mehr?

Guft: -Az tu ky burda dorad xob?

(Mazmuni:

Tunda bergan har savolimga

Ul guli tabon javoblar qildi.

Dedim: - Tunda oftobni ko'rib bo'lurmu?

Dedi: -Bo'lur, faqat tunda ko'rinadi oy.

Dedim: - Kim sendan mehrni olib qo'ydi?

Dedi: - Kim sening uyqungni o'g'irladi?)

Va ba'zan bayt tarkibida birin-ketin savol va javob kelur:

Dil ku? Bisatad. Ba chi? Ba lab. Kay? Diro'z.

Nogoh? Bale! Kujo Ba rah. Kay? Imro'z.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, asarda ma'naviy san'atlar misollar orqali ilmiy jihatdan asoslab berilgan va bu holat keyinchalik ilmi badi'ga doir boshqa manbalar uchun asosiy mezon vazifasini o'tagan. Asar ayni shu jihat bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi.

2.2. Asarda mushtarak san'atlarning ifodalanishi

Badiiy san'atlarning yana bir turi borki, ular ham ma'noga, ham shaklga oid bo'ladi. Biz bunday poetik figuralarni mushtarak san'atlar deb ataymiz. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: mutloq tajnis, tajnis is-zohid, tansiq as-sifat, tazmin, husni matla', husni maqta', husni is-taxallus va boshqalar. Endi ular haqida batafsil to'xtalamiz.

MUTLAQ TAJNIS (Tajnisi tomm). Bu san'at turli ma'noli so'zlarning talaffuz jihatidan to'liq muvofiqligidan iboratdir. To'liq muvofiqlikdan maqsad, harflarning soni, ularning turi tartibi, shakli, harakati va sukuni teng bo'ladi, ya'ni ikki so'z unli, ham undoshlari jihatdan bir –biriga to'la mos bo'ladi.

Unsuriy keltiradi:

Onchi ro'y ast, shukuftanargis andar guliston

V-on chi charror ast, xufta solu max bar guliston?

TAJNIS IS-ZOID. “Orttirilgan tajnis” ma'nosini bildiradi. Bu xil tajnislarda shaklan o'zaro yaqin so'zlarning birida bir –ikki harf ortiqcha bo'ladi, shu harflar tushirib qoldirilsa, so'zning qolgan qismi ikkinchi so'zga har jihatdan mos tushib tajnisi mutlaqni hosil qilishi mumkin. Bunda asosan bir harf bilan bir –biridan farq qiladi, misol uchun, nom va noma, ozor va zor kabilardir. Unsuriy aytadi:

Ob astu za'faron hasadi tu, ki hosidat

Bar chashm chashma doradu bar chehra zafaron.

(Senga hasad qiluvchi suv za'farondek negaki

Uning ko'zidan buloq oqmoqda, yuzi esa zafarondek)

Baytdagi chashm va chashma so'zlari tajnisi zoyidni yuzaga keltirgan. “Chashma” so'zi boshida “chashm” so'ziga nisbatan bir harf ortiqcha ekanligi ko'rinib turibdi, uni tushiradigan bo'lsak, har ikki so'z to'laligicha shakldoshlikni hosil qiladi.

Shoir misol keltiradi:

Shir ast gʻizoi koʻdaki xurd,
Shirast gʻizoi mardumi pir.

(Mazmuni:

Chaqaloqning ovqati sut boʻlganidek,
Qari kishilarning ovqati shirinlikdir).

TANSIQ AS-SIFAT. Bunda bir nimani izma –iz bir necha sifat keltirib zikr qiladilar, yoki bir nimani izma –iz kelgan bir necha sifat bilan bayon qiladilar. Vasef va tadbir qiladilar. Unsuriy aytadi:

Shohi geti, xusravi lashkarkashi lashkarkashin,
Soyayi yazdon, shahi kishvardehi kishvariston.

(Mazmuni: Olam podshosi, qoʻshinlarga shikast beruvchi qoʻshin sohibi.

Oллоhning yerdagi soyasi *jahongir* va shohlarga shohlik bagʻishlovchi podshoh)

Pariroʻye, sumanboʻye, sihiqadde, gulandome
Dilam burdu digar yodam nakard aslant ba dushnome.

(Baytning tarjimasi:

Pari yuzli, suman isli, tik qomatli bir gulbadan koʻnglimni eltti-yu meni oʻziga bir yomon soʻz bilan ham hech eslamadi). Undan koʻpincha qahramonga xos xislatlarni ifodalashda ham qoʻllanilgan.

TAZMIN. Tazminning maʼnosi baytni sheʼrga bino qilish qurish boʻlib, avvalgi baytning maʼnosi keying baytda oshkor boʻladi, chunonchi Unsuriy aytadi:

Agar shamshiru gardi lashkari tu
Bixohad roʻzi jangiu roʻzi maydon
Yake daryo kunad sahroi Omoʻy
Yake sahro kunad daryoi Ummon.

(Mazmuni:

Sening lashkarlaringni qilichlari

Xohlaydiki, jang kunida maydonda
Omo'y sahrosini dengizga aylantirmoqni,
Ummon dengizini sahro aylamoqni).

Bu to'rtlikda avvalgi baytning mazmuni keyingi baytda oshkor
(ravshan)bo'lgan.

Va tazmin yana shunday san'atki, shoirlar o'zga bir shoirning o'zlariga
yoqqan baytini o'z qasidalariga kiritadilar. Tazminning qoidasiga ko'ra, shoir ushbu
baytning o'zga shoir bayti ekanini ochiq aytadi va shoirning nomini ham keltiradi,
chunonchi Firdavsiy aytar:

Ba yodi javony hame mo'ya oram
Chu on bayti Butohiri Xusravony.
"Javoni man az ko'daky yod doram
Daryog'o javony, daryog'o javony".

(Mazmuni:

Yoshligimni eslab, nola –afg'on qilurman,
Abutohir Xusrav baytida aytilganidek:
"Yoshligimni men bolalikdan boshlayman,
Eh, afsus yoshligim, afsus yoshligim").

HUSNI MATLA'. Uni husni ibtido ham deydilar. Unda so'z boshida
noziklik-u ravonlikda va ularning aksi bo'lgan, qattiq, ammo bir –biriga yaqin
bo'lgan latif so'zlardan pokiza, mustahkam va yoqimli ibora tuziladi, uning
ma'nosida umuman qusur bo'lmaydi. Xoh baytning ikki misrasi, xoh nasrning ikki
bo'lagi bo'lsin orasidagi munosabat saqlanadi. Ko'pchilik she'rni boshini o'qib
keyin qolganiga kirishadi, ma'qul kelsa, o'qiydi bo'lmasa yo'q.

Misolini Unsuriy keltiradi:

Az orzui ro'y guli ro'y do'ston,
Zarrin shudast ro'y manu ro'y bo'ston.

(Mazmuni:

Gul yuzi va do'stlarning diydori orzusida
Bo'ston yuzi va mening yuzim za'faron bo'ldi).

Ey oftob ro'y-i turo kamtarin g'ulom
V-ey xo'shachin-i xirman-i husnat mah-i tamom.

(Mazmuni:

Ey oftob sening yuzingning kamtarin g'ulomi

Vah to'lin oy sening husning xirmonining boshoqchasi)

HUSNI IS-TAXALLUS. Taxallus hozir g'azal yoki she'riy asar nihoyasida (maqta'si)da ijodkorning o'z adabiy nomini qo'llash ma'nosida ishlatiladi. Chunki taxallus atamasini shu ma'noda istifoda etish Sharq badiiyat ilmida keyinroq sodir bo'lgan hodisa hisoblanadi. Roduyoniyning asarida taxallus- qasida va g'azal baytlarining biridan ikkinchisiga ham fikriy yuksaklik va vazniy uyg'unlik, ham ohang bobastaligida, ham qofiya munosibligida hech qanday qusursiz o'tilishdan iborat deya ta'riflanadi. Bu san'atni biroat-i taxallus ham deb nomlashadi. Aslida, taxallus so'zining ma'nosi "xalos bo'lmoq"dir. Unda shoir oshiqlik va faxrlanmakni niyat qilgan bo'lganligi uchun uni va so'z muqaddimasini, oxirgi madhning boshi bilan birlashtiradi. Taxallus g'azalning vazn tabiati, poetik sintaksisning barcha talablarga rioya qilish, qofiya ohangdorligiga amal qilishdan tashqari har bir baytdagi fikrning o'ziga xosligi va baytlararo fikriy uyg'unlikka, ularning mantiqiy izchilligiga ham e'tibor beradi.

Munchik misol keltiradi:

Rasida ofati nashtili o ba har gome,
Nihoda kishtai osebi o' ba har mashhad,
Chu o' na hastu na budu na niz xoxad bud,
Firoqi o' mutavotir, havo'i o' sarmand.
Ba soni amr-u atoi xudoygona buzurg,
Abdulmuzaffar, shohi Chag'oniyon, Ahmad.

(Mazmuni:)

HUSNI MAQTA'. Bu badiiy san'atda so'z va ma'no hamohang bo'ladi. G'azaldagi mazmun, fikr maqta'da intihosiga yetibgina qolmay, ayni zamonda, shoirning o'z-o'ziga yoxud umumga qaratilgan salmoqli xulosasi hisoblanadi. Qamariy keltiradi:

Kulohu taxtu butonu duou davlatu izz,
Zabar tu zeru ze peshu pasu yaminu yasor.
Shahrin rahi, malikon banda, ahd xush, dil shod,
Zafar muin, tarab afzun, tu emin ezid yor

(Baytning mazmuni:

Taxt-u sanamlar duo, davlat va izzat

Osting va ustingdan, old-orqa, o'ng va so'lda ular

Podshohlar qul, amaldorlar g'ulom, ahding xush

Quvonching ko'p, shuning uchun Alloh yor).

Mazkur she'riy san'at "Badoye' us-sanoye" asarida husni intiho, husn-i xotima, va baroat-i maqta' ham deb nomlangan. Bundan tashqari ushbu asarda maqta' yozishda xatoga yo'l qo'yilgan insonlarning nomi ham keltirilib, ularning maqsad yo'lida qilgan bir qator (jumladan, Asqariy nomli shoirning parchalarida yo'l qo'ygan ma'naviy va lafziy) xatolari sanab o'tilgan, ammo biz o'rganayotgan asarda xatolar tilga olinmagan muallif atamani tushuntirish, misollar orqali dalillash bilan cheklangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asarda keltirilgan mushtarak san'atlarning ham ilmi badi'da o'z o'rnini bor, chunki ular badiiy matnning malohatini oshirishda, muallif aytmoqchi bo'lgan fikrning ta'sirchanroq chiqishiga yordam beradi. To'g'ri, ular bayt ichida keladigan bo'lsa, ularni ma'naviy san'atlardan ajratib olishimiz birozgina biz uchun mushkullik keltirishi mumkin, ammo qoidalarini bilish orqali bu muammoni bartaraf eta olamiz. Negaki har qanday sharoitda ham husni matla' yoki husni maqta' nima, degan savolni kimdir beradigan bo'lsa, o'zimiz uning shakliy belgisiga qaragan holatda bu ma'naviy san'at buni esa bu degan javobni bera olamiz.

2.3. ZAMONAVIY ILMI BADI'DA UCHRAMAYDIGAN BADIY SAN'ATLAR

Yuqorida keltirilgan fasllar davomida, mumtoz adabiyotda she'riy san'atlarning qay darajada qo'llanilganligi va ularning ilmi badi'dagi ahamiyati haqida fikr yuritdik. Biz she'riy san'atlarni o'rganish davomida avval umuman uchramagan badiiy san'atlarni ham ko'rishga va ularni o'rganishga sazovor bo'ldik. Biz ishimizning ushbu faslida "Tarjumonul-balog'a"da mavjud bo'lgan, ammo bugungi kunda va o'sha davrning o'zida va undan keyingi davrlarda yashagan ijodkorlar asarlarida uchramaydigan badiiy san'atlarga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bunday san'atlarga quydagilar kiradi:

E'NOT. Bu san'atning lug'aviy ma'nosi arabcha "bir narsaga qattiq yopishib olmoq"dir. "Aruz nazariyasiga ko'ra esa qofiyadosh o'zaklarning oxirgi tovushi raviy deb nomlanadi".¹¹ Agar biror bir baytda birinchi qofiya "yiroq" bo'lsa, ikkinchi qofiya raviy "q" harfining talabi bilan firoq, chiroq, biroq bo'lishi mumkin. E'not deganda raviy harfdan oldingi jinsdosh, ya'ni raviy undosh bo'lsa undosh, raviy unli bo'lsa, unli tovushning keyingi qofiyadagi takrorini tushunmoq kerak. Misolni Xusraviy quyidagicha keltiradi:

Ey nozukak miyonu hama tan chu parniyon,

Tarsam, ki dar ruku' turo bigsilad miyon.

MAQLUB. Lug'atlarda keltirilishicha "teskari keltirmoq"dir. Islohat sifatida esa bir bayt tarkibidagi so'zlarning, yoki biror jumlaning barcha harflari teskari qilinadi yoki bo'lmasa, ularning ba'zi harflari teskari qilinadi. Harflar bir – biriga xasta va soxtadek yaqin bo'lsa ham, ushbu san'at hosil bo'ladi. Qisqacha qilib aytganda, maqlub san'atida harflar metatezaga uchraydi

Yaki podsho *bud dur* Nimro'z.

Ki az dod didi buzurgivu ro'z.

Yoki bo'lmasa, bunaqa holatda ham bo'lishi mumkin:

Ba *ganch* andarash *soxta xosta*,

¹¹ Раҳмонов В. Шеър санъатлари. Лелинобод, 1972.

Ba *chang* andarash lashkar orasta.

MAQLUB UL- MUSTAVIY. Bu badiiy san'at quyidagicha bo'ladi, unda biror ibora zikr etiladiki, uni maqlub (qalb) qilib teskari o'qisa, o'sha asl ibora hosil bo'ladi. Maqlubi mustaviy qalb san'ati (ya'ni so'zdagi harflarning o'rnini almashtirish orqali yangi so'z yasash: ruh- hur) bir so'z emas, balki ibora, misra yoxud butun bayt doirasida amalga oshiriladi. "U turli xil holatda uchrashi mumkin: ibora bir misradan kam bo'lish; ibora bir misra bo'lishi mumkin; har ikki misrani qalb qilganingda aynan o'sha misra hosil bo'ladishi mumkin".¹²

Zirako, kabko gurez,

Zaytro non or tez.

Bu baytlar arab yozuvida teskarisiga o'qilsa, yana shu bayt hosil bo'ladi. Biroq ikkinchi misraga birinchisi ulanib ketadi, bundan tashqari bir –biriga yaqin ma'noli tovushlar qo'llaniladi. Misol uchun: z r k –g r z

Yana quydagi misolni ham keltirishimiz mumkin:

Murod-i roz, dard-i zor doram

(Ey zebo nigorim, xilvatda senga aytadigan sirli murodim va zorli dardim bor)

MAQLUB-I MUJANNAH. Bu quyidagicha bo'ladi, unda ikki so'z keltiriladi. Birisi misraning boshida keltirilsa, ikkinchisi esa misraning oxirida keltiriladi:

Z- on du chodu nargisi maxmur bo kashshivu noz,

Zoru giryonu girevonam hama ro'zi daroz.

MUZORAA. Asli arabcha so'z bo'lib, shakli "muzore" tarzida bo'ladi. Uning lug'aviy ma'nosi "o'xshashlik" demakdir. Muzoraaning boshqa ma'nolari ham bor: ekin ekuvchi dehqon, aruz bahrlarining birining nomi ham shunday ataladi. Bu san'at ishtiyoqni eslatadi, ammo undan farq qiladi, agar o'zakdosh

¹² Bu haqda to'laroq ma'lumot olish uchun qarang: Хусайний А.Бадойиъ-с-санойиъ. Фафур Фулом номли Адабиёт ва санъат наشريёти. Тошкент, 1981. Б.60

soʻzlar bir necha marotaba takrorlangan boʻlsa, u ishtiyoq, orfoepik jihatdangina soʻzlar bir-biriga oʻxshasa, u muzoraa boʻladi. Jumladan, “torix” va “norich”, “chira” va “xira” kabilardir. Misol uchun:

Nili damanda tui ba gohi atiyat,
Pili damanda ba gohi kinaguzori.
(Nil- daryo Pil- fellar bunda tovushan oʻxshashlik bor).

Piroʻzi misol keltiradi:

Magar *ayb-u gʻayb* ast, k-ezid nadodat,
Digar har chi boist, doniyu dori.

Unsuriy aytadi:

Chashmam buvad, ar bodiya *qulzum* gardad,
Chismam buvad, ar xayol *mardum* gardad.

MUJARRAD. “Bu sanʼat aningtek boʻlurkim, sheʼrni bir harfdin tahrir qilurkim, ul harf soʻz ichinda koʻprak voqeʼ boʻlur netokkim bu baytni “alif”tin tahrir qilibtur.

MUQATTAʼ. Bunda soʻzlardagi hamma harflar bir-biridan ajralgan boʻladi va bu ikki yoʻl bilan hosil qilinadi. Birinchisida, harflarning ulanishi aslan mumkin emas. Ikkinchisida, ulanishi aslan mumkin boʻlgan harflar imlo qoidasiga koʻra ajratib yoziladi. Soʻz bir yondan ulanadigan harflardan iborat boʻlganda harflar aslan qoʻshilmaydi, lekin ikki yondan ulanadigan harfning oldida birinchi turidagi harf boʻlsa, mazkur turdagi harf oʻzidan keyingi harfga qoʻshila olmagan uchun ikki yondan qoʻshiladigan harf ham ajralib qoladi. Bu ulanish qobiliyatiga ega boʻlgan harfni ulanolmaydigan yerda keltirishdir.

Dur az dar-i orzuvu az dod
Darvoz davad dar dav-i ozod.

(Tarjimasi:

Orzu havas eshigidan uzoqda

Darvoz erkinlik yo'lida chopib yuribdi)

MUVASSAL. U shunday bir she'riy san'at uning o'ziga xosligi: baytdagi so'zlar ikki tomonlama qo'l beradigan harflardan iborat bo'lsa, har bir so'zning harflari yozuvda qo'shib yoziladi, ammo so'zlar ikki tomonlama qo'l bermaydigan harflardan(alif, dol, va vovlardan)iborat bo'lsa, baytdagi so'zlar qo'shib yozilmaydi:

Baski g'ami ishqat sa'b ast, bas

Ishqat kushtast, nakushtast kas.

Fitna manam, xastai basta manam,

Ishqat bastas, nabastam asas.

“Badoye'u-s-sanoye” asarida bu san'atga “andoq kalomdan iboratturkum, aning hech bir so'zining harflari yozuvda ajralmag'ay. Bu ham ikki xil yo'l bila bo'lur. Birinchi yo'li uldurkim, aning hamma so'zlarin, garchi yozuv qoidasiga binoan ulab yozmoq mumkin bo'lg'ay”¹³

Tan-i zaif-u nahifam alil gashta ba tab,

Nishasta be sababe nestam ba kunj-i ta'ab

(Mazmuni:Ozg'in, zaif tanim isitmalab kasal bo'ldi.

Horg'inlik burchagida besabab o'tirganim yo'q.

Bunda so'zlar ikki yondan qo'shiladigan harflar bilan tugagani uchun qoidaga zid ravishda o'quvchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida boshdan-oyoq bir-biriga ulab yozilgan)

MUDAVVAR. Arabcha “doira” degan ma'noni anglatadi. Bu she'riy san'atning o'ziga xos tomoni baytni har tarafdan o'qiganda ham ma'no va vazn saqlanadi va u bizga aruz vaznidagi doiralarni eslatadi...

¹³ To'laroq ma'lumot olish uchun qarang: Хусайний А.Бадойиъу-с-санойиъ.Ғафур Ғулом номли Адабиёт санъат нашриёти.Тошкент,1981.Б.93

Bad-in zardi nigorino ruxoni man chora kardan



TA’KID IL-MADH BIMOIYASHBAHU ZAMM. (Hajvga o‘xshatib madh etish). Bu san’atga ko‘pchilik fan arboblari ta’rif bermaganlar, chunki uning ta’rifi nomidan ocholadi. Qamriy keltiradi:

Hame ba farri tu nozand do‘ston-t, valek
Ba benazirin tu dushmanon dihand ikrar.

Yoki:

Nodard hech aybe nargis-i yor,
Juz in k-az noz bemorast bisyor.

(Mazmuni:

Yor nargisi (ko‘zi)ning hech aybi yo‘q bemorligini hisobga olinmasa. O‘ta suzuk ko‘zga bemor deyiladi.)

Bu she'riy san'at ham Atoulloh Husayniyning asarida ikki xil (birinchisi, hajviy sifatni inkor etadi. Ikkinchisida esa biror narsaning madhiy sifatni iqrar qiladi) deb keltirilgan. Umar Roduyoniyning asarida esa turlarga ajratilmagan.

TAFSIR IL-HAFIY. (Yashirin tafsir) Bunda shoir bir bayt yo misrada bir so'zni ko'p marotaba izohsiz holatda keltiradi. Izohlarni keyingi bayt va misralarda ortiqcha bayonsiz joylashtiradi. Bunda dastlabki baytning har-bir bo'lagini keyingi baytdagi bo'lagi bilan muvofiq qilgan holatda ma'nosini chiqaradi. Bu holat ikki baytda, ba'zan bir bayt, ba'zan bir misrada ham qo'llashi mumkin. Bunga misol tariqasida "Xingbut va Surxbut" dostonida kelgan baytni keltirishimiz mumkin:

Hami nomi kinshon ba paroxashmard,
Dile changchu-yu basechi nabard,
Hame to'xtandu hame toxtand,
Hame so'xtandu hame soxtand.

(Baytning mazmuni:

Hammalarining jangovorlik va botirlikda nomi chiqqan.

Yuraklarida urush olovi, urushga moyil.

Faqat talan-taroj qilib, tig'dan o'tkazadilar

Hamma yoqqa olov yoqadilar).

Muhammad Abada keltiradi:

Chunon ki nest nigore chu tu digar nabuvad,
Chu man sabur-u chu man razdor barnoe

(Baytning mazmuni:

Senga o'xshagan nigor boshqa yo'qligiga o'xshab,

Mendek sabrli va sirdosh yigit boshqa topilmas).

TAFSIR-I JALIY. (Ochiq tafsir) Bunda shoir yashirin so'zni shunday aytadiki, u tafsirga muhtoj bo'ladi. So'ng tafsir vaqtida esa u so'zni qayta keltiradi va tafsir qiladi:

Rindimu qalandar vashimimu dorimu nadorim :
Dorim g'ami-i yor –u nadorim g'am –i kor

(Mazmuni:

Rindmiz-u, qalandarmiz –u bizda biri bor –u biri yo‘q:

Yor g‘ami bor –u ish g‘ami yo‘q).

Yoki bo‘lmasa, Unsuriyning baytini misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

Yo buband yo kushoyad, yo sitonad yo dixad,
To jahon barpoy boshad, shohro in bod kor!
On chi bistonad- viloyat, on bidhad-xosta,
On chi bandad- poi dushman, on chi bikshoyad-hisor.

(Mazmuni:

Yoki bog‘lar, yo ochar, yo tortib olar.
Jahon Shohimning ishq oldida bo‘lguncha tor
Oladigani viloyat, beradigani xazina
Bog‘laydigani dushman oyog‘i, ochadigani qal’alar).

Roduyoniya tafsir turlari haqida gap ketadi-yu, unda aslida, tafsirning o‘zi nima ekanligi haqidagi savolga javob berilmaydi. “Tarjumonu –l-balog‘a” asaridan keyin yaratilgan asarlarda, masalan, Atoulloh Husayniyning ”Badoye’ us-sanoye” asarida tafsir haqida ma’lumot berilgan o‘sha asarga ko‘ra: “Ul andog‘durkim, zikr etkan kalomingda bir noaniqlikni ko‘rganingda bir nimani keltirursenkim, ul ani ravshanlashtirg‘ay andoqkim (bayt):

Gar zu xud xohiy huzure, roh-i pir-i mo guzin:

Ayb-i xud bin, fikr-i xud kun, kason kamtar nishin!

Asar tarkibidagi beshta badiiy san’at o‘sha davrda va undan keyin yaratilgan quyidagi mualliflar asarlarda uchramaydi: Rashiddin Vatvatning “Hadoyiqu-s-sehr fi daqoyiqu-sh-she’r”, Shamsul Qays, Nadjati, Shams Faxri, Tadj al-Xalavi, Sharaf Rami, Kashifi, Ataulloh Husayniyning “Badoye’us-sanoye” asarlardir.

Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan mulliflar va ularning asarlarida uchramaydigan badiiy san’atlar Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balog‘a”

asarida quyidagicha nomlar bilan keltirilgan: E‘notu-l –qarina, *takrib al-amsal bi-l-abyot*, *ma’ni al-ayot bi-l-abyot*, *tala’um* va *mutnafirlar* shular jumlasidandir.

E’not ul-qarina. Balog‘at ilmining bir turi bo‘lib, shoir yo kotib qofiyalar chegarasini belgilagandan keyin gap bo‘lagi yoki fikrni to‘liq bir holatda sig‘dirishi tushuniladi.

Zi dinorgun bedu abri saped,
Zamin gashta zarrinu simin samo.

(Baytning mazmuni:

Oltin rang toldan, oppoq bulutdan

Yer oltin rangda bo‘ldi, osmon kumush rangda)

Asarning 66 –faslida keltirilgan **takrib al-amsol bi-l-abyot (takrib al-amsol bi-l-abyat)** san‘atning tarjimasi “misol bilan she’rni biriktirish” ma’nosini bildiradi. Bu san‘atida, shoir shunday bir so‘z aytadiki, unda hadisning ma’nosi anglashiladi:

Har kiro bahra kard ezidi fard,
Donish-u amin-u tani durusti-yu xard.
Zin jahon bahrayi tamomi yoft ,
Go’ ba girdi digar fuzul magard ,
K –oru xok ser donad kard...

(Baytning mazmuni:

Oллоhning yagonaligi hammani bahra qildi.

Bilim, omonlik, sog‘liq va yetarli boylik bo‘lsa,

Bu olamdan kishi yetarli bahramand bo‘libdi,

Bekorchi fazilatlar atrofida yurma.

Orzuning karomati yo‘qdir, ochko’zni turoq tuydiradi).

Taqrib –il-amsol bil abyot (ma’ni al-ayat bi-l-abyat) “she’rga oyatdan misol keltirish” degan ma’noni anglatadi. Asarning 67 –fasli shu san‘atga bag‘ishlangan, bunda shoir shunday bir bayt keltiradiki, unda “Qur’on” oyatlari va maqollardan namunalar she’r ichida keltiriladi:

Badkirdor badanshed buvad;

U med navmedi andar ast;
Ohanro bo ohan burrand;
Sagaro bizanand, yuz pand girad;
Az suhani charb ravg'on nadavad;
Har guspandero ba poi xesh ovezand.

Mutanafir bu san'at talavimning aksi bo'lib, u ikki xil yo'l bilan hosil bo'ladi: birinchisi, harflardagi talaffuzi bir-biriga qo'shilmaydigan so'zlar, ikkinchisi, turli xil bo'lgan so'zlarni baytda keltirish. Bunda shaklga berilib ketish orqali ma'noga zarar yetishi mumkin. Yana shoir bunda zid ma'noli so'zlardan foydalanib, betakror she'riy baytlarini yaratadi:

Kamzoi umri mo karimi kamar ast ;
Harchand fasehzabon buvad guftor.

Talavim bu she'riy san'at balog'at ilmining eng go'zal san'atlaridan biri bo'lib, u shoirdan she'rdagi barcha baytlarni yuksak badiiyat bilan yozishini talab etadi. U ko'pincha qasida janrining tarkibida uchraydi ayni shu jihati bilan ahamiyatli sanaladi va bunda juft so'zlar keltiriladi:

On qatrai boron ba arg'uvon –bar,
Chun xay ba banogo'shi nekuvon-bar,
Va on foxta bar shohi o' nishasta ,
Oshiq shuda bar vasfi tu on bar.
Attor magar vasl kard amdan,
Kofur-u rayohin ba za'faron –bar.

(Baytning mazmuni:

Yomg'ir qatralari gulga etak bo'ladi
Bu xuddi go'zallarning qulog'idagi ter kabidir.

Arg'uvon shoxiga qo'ngan musicha,
Xuddi sening vasfingga oshiq bo'lganlar kabidir)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, avval ikki xil nom bilan yuritilgan she'riy san'atlar hozirda bitta nom bilan ataladi bunga misol tariqasida, *takrib al-amsol bi-l-abyot va taqrib-il –amsol bil ab'yot* san'atlarini keltirishimiz mumkin, chunki

avval ular alohida –alohida izohlangan, ya'ni birida "Hadis"dan birida "Qur'on"dan baytlar olib keltirilgan, ammo hozirda bu kitoblardan baytda qo'llash san'ati iqtibos degan umumiy nom bilan ataladi. Asarni o'rganish jarayonida bizni qiynagan bir qancha savollarga javob topishimiz mumkin.

Ikkinchi bobni yozish bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi:

1. Ba'zi olimlar Roduyoniyning kitobi arab olimlari risolasining tarjimai deb baholashgan, ammo Roduyoniy arablar poetikasida faqat badiiy san'atlarni tasniflash va ilmiy mulohaza yuritish uchun foydalangan.
2. Asarda she'riy san'atlar o'z isboti bilan keltirilgan, asarda har bir badiiy san'atga davrining mashhur shoirlari she'rlaridan to'qqiztadan misol keltirilgan.
3. Asarda badiiy san'atlar ma'naviy, lafziy va mushtarak kabi turlarga bo'linmagan, alifbo tartibida ham joylashtirilmagan.
4. Hozirgi kunda bitta san'atni ifodalaydigan, asarda esa ikki xil san'atni bildirgan san'atlar ham mavjud ularga: takrib al-amsol bi-l-abyot va taqrib-il-amsol bil abyot san'atlari kiradi. Bu san'atlarning asl mohiyati birida Hadisdan, birida esa Qur'ondan misol keltiriladi. Hozirgi kunda bu ikkala san'at bitta nom bilan ataladi, ya'nikim iqtibos.
5. Asarda hozirgi kunda biz biladigan san'atlar boshqacha tarzda o'z ifodasini topgan, masalan: asarda yozilgan ba'zi bir badiiy san'atlar yoki bo'lmasa, ularning turlari hozirgi kunda uchramaydi, misol uchun: tashbih san'ati nihoyatda turlari ko'p san'atlardan biri hisoblanadi, ammo asardagi tashbehi mukano, tashbehi marcho', tashbehi ma'kus, tashbehi muzdavaj kabilar shular jumlasidandir.
6. Asar XI asrda yozilganligi uchun unda arab tilining unsurlari uchraydi, ammo ularning ko'pchilligi hozirgi kunda uchramaydi ularga: mujarrad, muqatta', muvassal kabi san'atlar kiradi, chunki bu san'atlarda harflar asosiy ahamiyatni kasb etadi va ular qo'l berish va bermaslik xususiyatiga ko'ra xarakterlanadi.

XULOSA

Biz Umar Roduyoniyning “Tarjumu-l-balog‘a” asaridagi badiiy san‘atlarni o‘rganishimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Umar Roduyoniyning “Tarjumu-l-balog‘a” asari ilmi badi‘ga bag‘ishlangan fors tilidagi ilk manba bo‘lib, XI asrda yaratilgan. Roduyoniyni o‘z asarini arab olimlari risolalaridan foydalangan holda yozdi, u fors tili va adabiyotining milliy materiali negizida mustaqil nazariya yarata olgan ijodkor hisoblanadi.

2. Asar arab tilida ilmi badi‘ga atab yozilgan asarlardan badiiy san‘atlarning ko‘pligi va har bir san‘atga bir fasl ajratilganligi bilan ahamiyatli. Asar 77 fasldan iborat bo‘lib, har bir fasl alohida bir badiiy san‘atga teng, shu na‘noda risolada jami 77 ta badiiy san‘at turi keltirilgan. Asarni muallif tarsi‘ san‘ati izohidan boshlaydi.

3. Har bir badiiy san‘at avval nazariy holda izohlangan, keyin esa misollar orqali o‘z amaliy isbotini topgan. Asar keyinchalik shu mavzuga oid bir necha asarlar: ”Rashiddin Vatvotning “Hadoyiqu-s-sehr fi daqoyiq ush-she’r”, Yoqut Hamaviyning “Mo‘‘jamu-l-udabo”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro”, Hoji Xalifaning “Kashfu-z-zunun”, Lutf Alibek Ozarning ”Otashkada”, Rizoqulixon Hidoyatning “Majma’ ul-fusaho”, Atoulloh Husayniyning “Badoye’u-s-sanoye” yaratilishiga asos bo‘ldi.

4. Asarda she’riy san‘atlar bir qancha misollar bilan dalillangan, har bir badiiy san‘atga o‘sha davrning mashhur shoirlari she’rlaridan misol keltirilgan, bu holat muallifning o‘z davri shoirlari ijodi bilan yaxshi tanish bo‘lganligini ko‘rsatadi.

5. Hozirgi kunda bitta san‘atni ifodalaydigan, asarda esa ikki xil san‘atni bildirgan san‘atlar ham mavjud ularga: takrib al-amsol bi-l-abyot va taqrib-il-amsol bil abyot san‘atlari kiradi. Bu san‘atlarning asl mohiyati birida hadisdan, birida esa Qur’ondan misol keltiriladi. Hozirgi kunda bu ikkala san‘at bitta nom bilan, ya’ni iqtibos nomi bilan ataladi.

6. Asarda nomlari keltirilgan va tahlil qilingan ba'zi san'atlar ilmi badi'ga doir boshqa manbalarda uchramaydi. O'rganishlarimiz natijasida ularning soni 5 ta ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular quyidagilardir: E'notu-l –qarina, *takrib al-amsal bi-l-abyot*, *ma'ni al-ayot bi-l-abyot*, *tala'um* va *mutnafirlar* shular jumlasidandir.

7. Asarni o'rganishimiz asnosida unda: 30 ta lafziy, 39 ma'naviy va 8 ta mushtarak san'atlar mavjud degan fikrga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Siyosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент: Шарқ, 1998.-31 б.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2011. – 173 b.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.- Тошкент: Ўзбекистон, 2012. - 90 б

Matn va manbalar

4. Родуёний У. Мунтахаби “Таржумону-л-балоға ва Ҳадоиқу-с-сеҳр” –Душанбе: Дониш, 1987. -144 б
5. Тарозий Шайх Аҳмад. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – 212 б.
6. Ҳусайний А. Бадойиёу-с-санойиё /Форсчадан Рустамов А. таржимаси.-Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б.

Ilmiy adabiyotlar

7. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси . – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 424 б
8. Бобоев Т. Шеър илми таълими (Ўзбек шеърляти поэтикасидан сабоқлар). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
9. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.
10. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адолат, 2004. – 198 б.
11. Зеҳни Т. Санъти суҳан. Илми бадиё ва мухтасар арўз.-Душанбе: Ирфон, 1978.

12. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент: Зарқалам, 2006. -128 б.
13. Мусульманкулов Р. Персидско – таджикская классическая поэтика (XV – XIX вв.) – М.:Гл. ред. вост. лит., 1989. - 240 с
14. Родуёний У. Таржумону-л-балоға. –Душанбе: Дониш, 1987. -144 б
15. Раҳмонов В. Шеър санъатлари - Лелинобод, 1972.- 180 б
16. Ражабова Б.Т. Ўзбек классик шеърлятида тамсил санъати: Филол.фан. номз. дис. ...афтореф. –Тошкент, 1996.- 23 б.
17. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент:Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.
18. Тўйчиева Г. Форс арузи рисолалари.-Тошкент, 2008. – 128 б
19. Фитрат А. Адабиёт қондалари: Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт ҳаваслилари учун / нашрга тайёрловчи сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 112 б.
20. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия.-Тошкент: Шарқ НМАК, 1998. – 158 б.
21. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: Шарқ НМАК, 1999. - 240 б
22. Ҳожиаҳмедов А. Навоӣ арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. – 288 б.
23. Ҳожиаҳмедов А. Ҳусни таълил санъати. – Тошкент: Фан, 2006. - 288 б.
24. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. - 193 б.